



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda Ha nocty




2025-yil 10-aprel  
payshanba

№ 15 (4709)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

Imij obraz,  
qiyofa, unga bildi-  
rilgan munosabat va  
u haqdagi fikrlar maj-  
mui, shaxsning axloqiy  
mohiyati va unga mu-  
vofiq tashqi ko'rinish  
mutanosibligidir.

## ZAMONAVIY QIYOFA UYG'UNLIGIDA



Yodgor SA'DIYEV,  
O'zbekiston,  
Qoraqalpog'iston va  
Tojikiston xalq artisti,  
IIV huzuridagi Jamoatchilik  
kengashi raisi

### XODIMLARGA AYTAR SO'ZIM

Muhtaram  
Prezidentimiz «Ichki  
ishlar tizimidagi  
islohotlarimizning  
amaliy natijasini  
sohaning har bir  
xodimi, birinchi  
navbatda, xalqimiz  
o'zining kundalik  
hayotida sezishi  
shart», degan  
edi. Bu so'zlar  
bejiz aytilmagan.  
Sohadagi barcha  
xodimlar bugun  
nafaqat yelkasidagi  
mas'uliyatni chuqur  
his qilishi, balki tizim  
imijiga dog' tushirib  
qo'ymaslik uchun ham  
o'zlarida kuch topa  
olishlari kerak!

Imij – omma tafakkurida maqsadli shakllantiriladigan hamda ratsional yoki emotsional xususiyatga ega bo'lgan narsa, hodisa va yoki insonlar timsoli, ularning yig'ma obrazi hisoblanadi. Shu bois imijga nisbatan har doim u yoki bu darajadagi ijtimoiy munosabat mavjud bo'ladi.

## ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

# ДЎСТОНА ВА КОНСТРУКТИВ РУҲДА

Жорий йилнинг 7 апрель куни Ички ишлар вазири, генерал-майор Азиз Ташпулатов ҳамда Франция Республикаси Президентининг маслаҳатчиси – Франциянинг разведка ва терроризмга қарши курашиш бўйича миллий мувофиқлаштирувчиси жаноб Паскал Майос (Pascal Mailhos) ўртасида ўзаро ҳамкорлик учрашуви бўлиб ўтди.



Тадбир жараёнида томонлар ўзаро амалий ҳамкорлигининг долзарб йўналишлари, хусусан, терроризм ва экстремизм, трансмиллий уюшган жиноятчилик ва кибержиноятларга қарши курашиш ҳамда ўзаро тажриба алмашиш истиқболларига оид

масалаларни муҳокама қилдилар.

Дўстона ва конструктив руҳда ўтган учрашув якунида икки мамлакатнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ўртасидаги алоқаларни мустаҳкамлаш борасида тегишли келишувлар белгилаб олинди.

# ВОЛЕЙБОЛ: ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАР



Сўнгги йилларда мамлакатимизда спортни оммалаштириш, ёшларнинг спорт билан шуғулланишлари учун қулай шароитлар яратиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Мазкур тизимли ишларнинг узвий давоми сифатида Волейбол федерациясининг ИИБ Академиясида бўлиб ўтган навбатдан ташқари конференциясида Ички ишлар, Спорт вазирликлари, Миллий олимпия қўмитаси раҳбарияти, ҳудудий ички ишлар органлари масъуллари, федерация мутасаддилари ва унинг ҳудудий вакиллари, спорт фахрийлари иштирок этишди.

Конференцияни очиб берган Спорт вазири Адҳам Икрамов волейбол спорт турини ривожлантириш борасида амалга оширилаётган ишлар натижасида мамлакатимиз нуфузли мусобақаларга мезбонлик

қилаётганлиги, энг муҳими, унинг халқимиз орасида оммалашиб бораётганлигини эътироф этди.

Йиғилишда Ички ишлар вазири, генерал-майор Азиз Ташпулатов Ўзбекистон волейбол федерацияси раиси этиб сайланди. Шунингдек, бир қатор вилоятлар ИИБ бошлиқлари ва Тошкент шаҳар ИИББ бошлиғи ҳудудий бўлимлар раислигига сайланди.

Тадбир давомида Президентимизнинг 2022 йил 11 апрелдаги «Маҳаллаларда ёшларни оммавий спортга жалб қилишни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ижросини таъминлаш мақсадида «Беш ташаббус олимпиадаси» доирасида ўтказилиши режалаштирилган спортнинг волейбол тури бўйича «Ички ишлар вазири кубоги» мусобақаларига тантанали старт берилди.

# ЗАМОН БИЛАН ҲАМНАФАС



Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясида ҳудудий ички ишлар органлари раҳбар ходимлари ҳамда ИИБ Академияси магистратура тингловчилари учун бир ҳафталик ўқув-амалий семинари бўлиб ўтмоқда.

Семинарни Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси Дониёр Қодиров очиб, мамлакатимиз ҳудудларидан келган ички ишлар органларининг асосий бўғинида раҳбарлик вазифаларида хизмат қилаётган ходимларга се-

минардан кўзланган асосий мақсадни етказди.

Ички ишлар вазири, генерал-майор Азиз Ташпулатов замонавий билимларни ўзлаштириш, дунёда рўй бераётган ҳодисалардан хулоса чиқарган ҳолда, хизмат ҳудудида жиноятчиликка қарши курашишда тизимли ишларни йўлга қўйиш тингловчилар олдидаги асосий вазифа эканлигини таъкидлади.

Семинарда ички ишлар органларида хизмат қилаётган кадрлар салоҳиятини ошириш ҳамда уларнинг олдида қўйилган муҳим вазифалар, соҳага оид қонунчиликдаги ўзгаришларни

етказиш юзасидан турли учрашувлар ва амалий машғулотлар ўтказилмоқда.

Жумладан, ўқув-амалий жараёнларида жиноятчиликка қарши курашиш, маҳаллаларда жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш ҳамда энергетик хавфсизликни таъминлаш фаолиятини ташкил этишга оид билимларни ривожлантириш бўйича малакали мутахассислар томонидан машғулотлар олиб борилмоқда.

**Аброр ПОЁНОВ,**  
ўз мухбиримиз.



ФРОНТ ОРТИДА МЕХНАТ ҚИЛГАНЛАР

## СЎЗЛАРИДАН ҲИКМАТ ЁФИЛАР

Замонлар алмашиб, тузумлар ўзгариб, орзулар рўёбини кўриб яшайдиган даврда ўтмишдаги қийинчиликлару машаққатлар ҳақида гапирсангиз, рости, бугунги ёшлар ишонмаслиги мумкин. Мозий саҳифалари эса бугунги дориламон кунларга етишиш йўлида не-не мард ва жасур халқ фарзандларининг азиз жонлари қурбон бўлганидан сўзлайди. Биргина Иккинчи жаҳон уруши миллионлаб кишиларнинг умрини хазон қилди, кўплаб йигитлар бир умрга майиб-мажруҳ бўлиб қайтди. Фронт ортида қолган ёш-яланглар эса болалигидан меҳнатда фидойилик кўрсатиб, аскарларга озиқ-овқат етказиб беришди, тирикчилик ҳам уларнинг зиммасига тушди.

Наманган шаҳрининг «Янги аср» маҳалласида истиқомат қилувчи, 95 ёшни қарши олаётган Маҳмуджон ота Жўраевнинг болалик йиллари айна Иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келди. Элнинг ишга яроқли, билагада кучи бор мард ўғлонлари қўлига қурол олиб, урушга отланганида, фронт ортидаги барча юмушлар болалар ва аёллар зиммасида қолган эди. Шу боис ёш Маҳмуджон 12–13 ёшларида далага отланди. Эл бошига тушган оғир кунларда ўсмир йигитлар қатори қаҳрамонимиз ҳам нафақат меҳнатда ўрнак бўлди, шунингдек, урушдан қорахат келган хонадонларда қариялар ва аёлларга яқиндан ёрдам берди.

Уруш тугаб, аста-секин ҳаёт ўз изига туша бошлагач, ёш Маҳмуджон аввалига далада меҳнат қилди. Сўнг ота-она дуоси билан пойтахтга йўл олди. 1953 йилда ИИБ Тошкент олий милиция мактабини тамомлади. Наманган шаҳар ИИБ ёшлар билан ишлаш бўйича инспектор ёрдамчиси,

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси инспектори ва Жиноят-қидирув бўлинмасида тезкор вакилдан бўлим бошлиғигача бўлган лавозимларда, халқ тинчлиги ва осойишталигини сақлашга ўзининг муносиб ҳиссасини қўшди. Жиноятларни «иссиқ изида» фош этишда ўзига хос тажриба мактабини яратади. Истеъфодаги подполковник, 11 фарзандни тарбиялаб, элга қўшган фидойи ота Маҳмуджон Жўраев 1986 йилда пенсияга кузатилди.

– Ота касбини эгаллаб, мен ҳам айна пайтда истеъфодаман. Укам Муҳаммад ҳам ота касбининг давомчиси, – дейди истеъфодаги майор Орифжон Жўраев. – Вилоят ИИБ фахрийлари орасида энг ёши улуғи, табарруги бўлган отамни вилоят ИИБ раҳбарияти ҳар байрамда йўқлашни канда қилмайди. Эътибор ва рағбатдан куч олади-да одам. 11 фарзанднинг еттинчисиман. Онам вафот этган. Отам қатъиятли, шижоатли бўлсалар-да, жуда кичиккўнгил, одамшаванда инсон. Ҳаммамиз-



Суратда: Маҳмуджон Жўраев фарзандлари билан.

нинг ўқишимиз, ҳаётда ўз ўрни-мизни топишимиз учун барча шароитларни яратиб беришган.

Маҳмуджон отанинг хонадони доимо гавжум. Барча фарзандлари йиғилиб қолишса, тўйхонага ўхшаб қолади хонадон. Неварачевараларнинг сони 76 нафарга етди. Кексаликка сўз бермаган бобо эса уларни номма-ном санаб, адаштириб ҳам юбормайди. Вилоят Ички ишлар бошқармаси томонидан меҳнат фахрийларига алоҳида иззат-ҳурмат кўрсатилаётгани таҳсинга лойиқ. Беморлар ҳолидан хабар олиш, моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш эзгу анънага айланган. Айниқса, Маҳмуджон отанинг хонадонидан ҳар байрамда бўладиган самимий суҳбатлар отахоннинг кўнгилни тоғдек кўтариб юборади. Икки аср

билан юзлашган, ҳаётнинг пасту баланд йўлларида қийинчиликларни сабр ва матонат билан енгган, қолаверса, ички ишлар органлари сафида ҳалол меҳнат қилган отахоннинг барча даврлардаги хотиралари, ҳаётий ҳикоялари қизиқ. Ҳикматларга тўла сўзлари билан суҳбатдошини ҳам ўзига мафтун қилиб қўяди.

– Юрт тинчлигига кўз тегмасин, Ватанимиз гуллаб-яшнасин. Ўғил-қизларимиз бахтли бўлишсин, – дуога қўл очади отахон.

Илоҳим, умрингиз узоқ бўлсин, соғлиқ-омонлик ёр бўлсин, дуола-рингиздан баҳраманд бўлиб яшаш ёш авлодга насиб этаверсин, Маҳмуджон бобо, деймиз!

**Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,**  
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.

МАҲАЛЛА ТИНЧ – ЮРТ ТИНЧ

## ЖИМ, ГАП КЎЧАГА ЧИҚМАСИН

«Мустақиллик» маҳалла фуқаролар йиғини Деҳқонобод тумани марказида жойлашган бўлиб, аҳолиси асосан чорвачилик билан ном қозонган. Ким билан суҳбатлашманг, албатта, чорва молларини кўпайтириш тараддудида юрганига амин бўласиз. Қай бир хонадонга ташриф буюрманг, кафтдеккина жой ҳам бўш эмаслигини, ҳовлиларда 3–4 та сигир, 5–10 та кўй боқилаётганини кўрасиз.

Маҳалла гузарида қатор маданий-маиший хизмат кўрсатиш шохобчалари мавжуд. Замонавий типда қурилган оилавий шифокорлик пункти эса 785 та хонадонда истиқомат қилаётган 2870 нафар фуқарога хизмат кўрсатмоқда.

– Маҳалламизда аҳоли иштирокида жиноятчиликнинг ҳар қандай кўринишига қарши мурасиз бўлиш юзасидан мунтазам учрашувлар ўтказилади, – дейди биз билан суҳбатда маҳалла фуқаролар йиғини раиси Махматмўмин Тошпўлатов. – Бу тадбирларда ҳуқуқ-тартибот органлари вакиллари қатнашиб, фуқароларга жиноятчилик, айниқса, экстремизм, гиёҳвандлик, одам савдосининг салбий оқибатлари тушунтирилмоқда.

Ёшлар ва аёллар бандлигини таъминлаш маҳалла еттичилигининг доимий диққат марказида. Аҳолининг қарийб учдан бирини ташкил этадиган хотин-қизлар касаначилик, тикувчилик каби тўғарақларда хунар ўрганишмоқда. Ирода Бўриева уста тикувчи. У банк кредити асосида тикув машинаси олиб, ўзини банд қилишдан ташқари, 3–4 хотин-қизга касб сирларидан сабоқ бермоқда. Сабрина Холниёзова эса турли хил пишириқлар тайёрлаш сирларини қизларга ўргатиб келмоқда.



Маҳалла ҳудудида спорт билан шуғулланиш учун барча шароитлар муҳайё қилинган. Аҳолининг ўн фозини ташкил этадиган ўсмирлар ва ёшлар мини футбол, волейбол, баскетбол, шахмат, шашка, миллий кураш, каратэ, самбо каби спорт турлари билан мунтазам шуғулланади.

Маҳаллада юз берган ҳар қандай ножўя хатти-ҳаракат дарҳол оқсоқоллар даврасида муҳокамага қўйилади. Негаки, ҳар нарсадан ориятни устун қўядиган маҳалла аҳли уйдаги гапни кўчага чиқар-

май, муаммони ҳал қилишни афзал билишади. Ичкиликбозликка ружу қўйган, оила-турмуш доирасида мунтазам ҳуқуқбузарликлар содир этувчилар, ножоиз хатти-ҳаракатлари билан фарзанд тарбиясига салбий таъсир қилувчи ота-оналарнинг қилмишлари маҳалла фаоллари, оқсоқоллар билан муҳокама қилиб келинаётгани боис жорий йилнинг ўтган даврида маҳаллада биронта жиноят содир этилмади. Шу боис маҳалла «яшил» тоифада.

Бундай натижаларни қўлга кириштиришда, шубҳасиз, туман ИИБ ЖХХ ҲПБ 50/13-сонли ҳуқуқ-тартибот маскани профилактика инспектори, капитан Лутфулла Ҳамидовнинг алоҳида хизмати катта. Эл-юрт осойишталиги, фуқаролар хавфсизлиги йўлида қилинган ҳар қандай хизмат эса беиз кетмайди. Капитан Лутфулла Ҳамидов яқинда Ички ишлар вазирининг буйруғига биноан, муддатидан олдин «майор» махсус унвони билан тақдирланди. Бу унга келгуси хизмат фаолиятини янада фидойилик билан олиб боришида катта куч-ғайрат, шижоат бағишлаши турган гап.

**Содиқ РАҲИМОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Қашқадарё вилояти.

## MULOHAZA

## ZAMONAVIY QIYOFA UYG'UNLIGIDA

(Davomi.  
Boshlanishi 1-betda.)

Ichki ishlar organlarida ham xodimlarni xalqqa yaqinlashtirish, el-yurt dardi va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmogda. Yangi O'zbekistonda yangi ichki ishlar organlarini shakllantirish, aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, ijtimoiy yo'naltirilgan professional xalqchil tuzilmaga aylantirish barobarida, uning imijini oshirishga ham ahamiyat berilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, har bir ichki ishlar organi xodimi timsolida yurtdoshlarimiz o'z himoyachisini ko'rishi lozim.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmatni bevosita fuqarolar ko'z o'ngida amalga oshiradi, demakki, fuqarolar bilan ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish, ularning murojaatlari bilan ishlashda haqqoniy bo'lish, xalq bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish zarur.

Biroq keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda xodimlarning xizmat

oyida Toshkent shahrida xizmat olib borayotgan xodimlar «Gentra» rusumli avtomashinani to'xtatib, haydovchidan hujjatlarni taqdim etishni so'ragan. Shu vaqtda mashinadagi yo'lovchilar – S.B., X.J. va N.F. xodimlarga nisbatan turli xil haqoratli so'zlar aytib, jamoat tartibini buzgan. Shuningdek, ular ichki ishlar organi xodimlarining qonuniy talablarini bajarmasdan, ularga nisbatan qarshilik ko'rsatishgan.

Xuddi shunday, ijtimoiy tarmoqlarda Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanida ichki ishlar organlari xodimlari va fuqarolar o'rtasida janjal sodir bo'lgani aks etgan videolar tarqaldi. Bir necha fuqaro kompyuter klubida janjal keltirib chiqargan. Chaqiruvga asosan, hodisa joyiga yetib kelgan xodimlarga fuqarolar qarshilik ko'rsatgan.

Bunaqa misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Birgina joriy yilning o'tgan uch oyida 48 ta holatda xizmat vazifasini o'tayotgan ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan fuqarolar tomonidan qarshilik ko'rsatilgan.



vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilish, haqorat qilish, ularning xatti-harakatlarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish holatlari uchrab turibdi. Osoyishtalik posbonlarini obro'sizlantirish, noxolis axborotlarni bo'rttirib ko'rsatishlar kuzatilyapti. Achinarli tomoni, bunday holatlardan xodimning o'zi, yaqinlari, oila a'zolari moddiy va ma'naviy zarar ko'rishi mumkin. Ular ham bir oilaning boquvchisi, kimningdir farzandi, kimningdir otasi yoki aka-ukasi. Bu ichki ishlar organlariga nisbatan salbiy fikrlarni shakllantirish va tizimda halol ishlayotgan minglab xodimlar mehnatini puchga chiqarish yo'lidagi urinishlardir.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda bir necha fuqaro ichki ishlar organlari xodimlariga qarshilik ko'rsatayotgani aks etgan video tarqalib, turli muhokamalarga sabab bo'lgandi. Aniqlik, o'tgan yilning aprel

Shundan 27 ta holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan. 12 ta holat yuzasidan tekshiruv ketyapti. Shuningdek, hisobot davrida ijtimoiy tarmoqlarda ichki ishlar xodimlari va fuqarolar o'rtasida kuzatilgan ko'plab mojarolar, kelishmovchiliklar tarqalgan.

Unutmaslik kerakki, ziddiyatli holatlarda xodimlarga alohida javobgarlik yuklanadi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomalalik va boadablik talab qilanadi. Munozarali, janjalli munosabatlarni hal qilish vaqtida xodim buzilgan huquq-tartibotni tiklash va bunda atrofda gilarining qo'llab-quvvatlashiga erishishi lozim. Huquqbuzarni ushlab va tegishli ichki ishlar organiga olib borish to'g'risida bir qarorga kelishdan oldin, o'z harakatlarining qonuniyligiga ishonch hosil qilishi darkor. Ushlanganlarning qo'polligiga,



ig'vogarona xatti-harakatlariga xushfe'llik, vazminlik, xotirjamlik bilan dadil javob berib, puxta o'ylab qaror chiqarish lozim.

**tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 10 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi belgilandi.**

**Ma'lumki, 2025-yil 20-fevraldagi «Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida» qonuniga muvofiq Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 195<sup>2</sup>-moddasi bilan to'ldirilib unga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmat vazifalarini bajarayotgan paytda olingan foto- va (yoki) videotasvirini ularning obro'sizlantirilishiga olib keldigan tarzda buzib tarqatish, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida**

Mazkur normani tatbiq etishda Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Fransiya va Belarus kabi mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Sanab o'tilgan va boshqa rivojlangan demokratik mamlakatlarda, haqiqatan ham, bu kabi cheklovlar bor, ammo ushbu mamlakatlarda har bir fuqaroning nizoli holatlarda politsiya xodimining bodi-kamerasidagi yozuvlarni olish huquqi kafolatlangan.

Yangi norma bilan kiritilgan javobgarlikning belgilanishi huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xizmati bilan bog'liq faoliyatini tasvirga olish mumkin emas, deganimas, balki, u ichki ishlar organlarining xalqchilligi va professionaligini oshirishga xizmat qiladi.


**Azizjon FAYZIYEV,**  
podpolkovnik.

### Xorijda qanday?

**Buyuk Britaniyada** ko'chalarda yoki binolarda xizmat vazifalarini bajarayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini ularning roziligisiz suratga olishni taqiqlovchi norma mavjud. Unga ko'ra, xizmat vazifalarini bajarayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimini uning roziligisiz kamera, videokamera yoki mobil telefon orqali tasvirga olgan yoki tasvirga olishga uringan shaxs hibsga olinishi va keyinchalik 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi mumkin.

**Germaniyada** politsiya xodimlarini suratga olish taqiqlangan emas, biroq ushbu fotosuratlar yoki videolarni ijtimoiy tarmoqlar va internetga joylashtirish taqiqlangan.

**Fransiyada** bir va boshqa operatsiyalar davomida politsiya xodimlari yoki jandamlarning shaxsini identifikatsiya qilishga yordam beradigan tasvirlarni tarqatish bir yillik qamoq va 45 ming yevro jarima bilan jazolanadi.

 Молодежь — наше будущее

## ТАМ, ГДЕ ОСОБЕННО ЖДУТ

**В рядах органов внутренних дел республики трудится немало выпускников Академии МВД Узбекистана. Одна из них — лейтенант Мухаббат Муминова, старший инспектор по вопросам женщин отдела профилактики правонарушений ОВД Кошрабадского района.**

За короткий срок Мухаббат Муминова успела зарекомендовать себя как инициативный и неравнодушный сотрудник. Ее труд направлен на защиту прав и интересов женщин, особенно в отдаленных сельских населенных пунктах.

— Чтобы снизить уровень правонарушений среди женщин, мы регулярно проводим встречи, профилактические мероприятия, стремимся выявлять и решать социальные проблемы, — делится Мухаббат. — Особое внимание уделяю тем, кто ранее имел судимость или находится на учете службы пробации. Сейчас в районе таких женщин 12, каждая из них трудоустроена: кто-то занялся швейным делом, кто-то работает в местном центре ремесел.



Нередко женщины не знают, как защитить свои права, куда обратиться за помощью, какие льготы им положены.

— Недавно в районе прошел выездной медосмотр, — рассказывает Мухаббат. — Многие женщины не знали о нем, поэтому мы

заранее распространили информацию, объяснили, как получить направление и ордер на бесплатное лечение. Еще один

злостный вопрос: сельские женщины часто не озвучивают волнующие их проблемы, в отличие от жительниц городов, которые, как правило, более информированы и уверены в себе.

— Я люблю свою профессию, — говорит наша героиня. — Эти слова, наверное, каждый произносит, вкладывая в них что-то свое, личное. Для меня же они наполнены особым смыслом. Быть инспектором по вопросам женщин — это не просто носить форму и следовать инструкциям. Это — быть голосом тех, кто остается не услышанным, опорой для тех, кто нуждается в защите. Когда видишь, что ты нужна людям, что женщины доверяют тебе и ждут твоего совета, приходит осознание: моя служба — это дело всей жизни.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.

Самаркандская область.

### ■ Хорезмская область

Принято совместное решение областного хокимията, прокуратуры, органов внутренних дел, Национальной гвардии и управления Ассоциации махаллей. На его основе утверждена «Дорожная карта», предусматривающая системный подход к решению выявленных проблем.

Особое внимание уделено махаллям с повышенным уровнем преступности. За каждой из них закреплены ответственные руководители. Будут реализованы мероприятия по ряду направлений.

В целях повышения безопасности в общественных местах и на центральных улицах активно внедряются современные технологии видеонаблюдения. Помимо стандартных камер использу-

ются интеллектуальные системы, распознающие лица и государственные номера автомобилей. Эти устройства устанавливаются как в жилых массивах, так и на территориях торговых центров и рынков.

В многоквартирных домах устанавливаются домофоны, тревожные кнопки и системы охраны. Ведется работа по созданию образцовых улиц и пешеходных зон, свободных от правонарушений.

## АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

**Завершилось комплексное изучение состояния правопорядка, проведенное рабочей группой Министерства внутренних дел. Цель — усиление мер по обеспечению общественной безопасности, ранняя профилактика правонарушений.**



На основе анализа социально-экономических проблем оказывается поддержка малообеспеченным гражданам. Большинство обращений, поступивших от малообеспеченных семей, получили положительное решение.

Одним из ключевых направлений остается содействие занятости граждан. Составлены списки безработных лиц. Многим из них оказана помощь в трудоустройстве, оформлены направления на

курсы профессионального обучения. Особое внимание уделяется социальной адаптации ранее судимых лиц, возвращающихся к нормальной жизни.

Члены рабочей группы ознакомились с деятельностью «махаллинских семерок» и провели разъяснительную работу по вопросам профилактики правонарушений

**Бекзод МИРЗАКУЛОВ,**  
подполковник.



## TASVIRDA KO'RINAR EGRILAR

**Angor tumanidagi kriminogen vaziyati og'ir «O'zbekiston» hamda «Sharq guli» mahallasida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida birlashtirilgan mas'ullar tomonidan belgilangan «Yo'l xaritasi» asosida tizimli ishlar olib borilmoqda.**

Jumladan, «O'zbekiston» mahallasini jinoyatdan xoli hududga aylantirish, aholi bandligini ta'minlash, yoshlar hamda voyaga yetmaganlarni nazorat qilish alohida nazoratga olingan shuningdek, viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasi xodimlari ham-

da mahalla yetiligi hamkorligida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda fuqarolarga sodir etilayotgan holatlar yetkazilib, xonadoni va obyekt daxlsizligini ta'minlashda qo'riqlash xizmati imkoniyatlaridan samarali foydalanish tavsiya etilmoqda.



Tumanning «Sharq guli» mahallasi ham «qizil» toifaga kiritilgan hududlardan biri. Mahallada 4050 nafar aholi istiqomat qiladi.

– Mahallamizda yangi ko'p qavatli uylar qurilgan bo'lib, birinchi navbatda, ushbu uylarga ko'chib kelib, istiqomat qilayotgan aholini muntazam ravishda xatlovdan o'tkazish ishlari olib borilmoqda, – deydi tuman IIB HPB profilaktika katta inspektori, kapitan Shuhrat Avazov. – Shu bilan birga, ko'p qavatli uylarga fuqarolarning kirib-chiqishini nazorat qilish maqsadida 20 dona domofon o'rnatildi. Bundan tashqari, mahallaning kirish-chiqish joyiga hamda asosiy ko'chalar va ko'p qavatli uylarning yo'laklariga 30 dan ortiq kuzatuv kameralari o'rnatilib, ular tuman IIBga integratsiya qilindi. Albatta, bu vositalar jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish va erta aniqlashda qo'l keladi.

Bundan tashqari, mahalladagi ishsiz yoshlar, doimiy daromad manbayiga ega bo'lmagan va profilaktik ro'yxatda turgan shaxslarga mahalladagi hokim yordamchisi ko'magida bandligini ta'minlash choralari ko'rilayotir.

Tadbirlar davomida ko'chalarda, ko'p qavatli uylarning kirish qismiga «tashvish» tugmalari ham o'rnatildi. Fuqarolar xonadonlari va savdo do'konlari qo'riqlovga, hududlar esa nazoratga olindi. Bu kabi targ'ibot tadbirlari tumanning boshqa mahallalarda ham davom ettirilib, kriminogen vaziyat nazoratga olingan.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

## TUN-U KUN UYG'OQ XIZMAT

**Norin tumani IIB Navbatchilik qismiga viloyat IIB-ning «102» tizimi orqali «Shoxidon» MFYda yashovchi S. Asqarovning murojaati kelib tushadi. U xonadonidan «BOOKNOMY» rusumli plansheti o'g'irlab ketilganini bildirib, noma'lum shaxsni topib, unga nisbatan qonuniy chora ko'rishni so'ragan.**

Kameralar o'rganib chiqilganda, hududda atrofga alanglab yurgan fuqaro videoga muhrlanib qolgan ma'lum bo'ladi. Uning xatti-harakatlarida o'zini shubhali tutayotgani xodimlar e'tiborini tortdi. Tezkor xodimlar tomonidan ushbu o'g'irlikni Andijon viloyati Baliqchi tumanida yashovchi fuqaro M.N. sodir etgani aniqlandi.

«102» qisqa raqamli telefon qo'ng'iroqlari tun-u kun tinmaydi. Fuqarolarning jinoyat va hodisalarga oid xabarlar asosida sohaviy xizmatlar xodimlari hodisa sodir bo'lgan joyga zudlik bilan yetib borib, tezkor chora-tadbirlar ko'rishmoqda. Natijada xodimlarning sa'y-harakatlari bilan yil boshidan buyon 20 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

Norin tumani katta hudud bo'libgina qolmay, aholi soni ham yil-

dan-yilga ortib bormoqda. Bu esa xodimlar zimmasiga yanada mas'uliyatli vazifalar yuklaydi. Vaziyatni barqaror ushlab maqsadida tizimli ishlar tashkil etilgan.

– Shuni alohida ta'kidlash kerakki, navbatchilik qismi xodimlari tomonidan yil boshidan buyon hozirgi kunga qadar 1860 ta ariza qayd etilgan bo'lib, tegishli tartibda qonuniy hal etish choralari ko'rildi, – deydi tuman IIB Tashkiliy bo'linma boshlig'i, mayor Dilshod Nazarov. Fa-

liyatimizga zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturlar kirib kelishi xizmatni birmuncha osonlashtirgan. Xabarnomalar va jinoiy holatlarga oid murojaatlar kompyuter dasturlari orqali ham amalga oshiriladi. Telefon apparatlari, tuman IIB tomonidan markaziy ko'chalar va chorahalarga o'rnatilgan videokameralar navbatchilik qismiga integratsiya qilingan bo'lib, monitor orqali vaziyatni tahlil etish imkoni bor.

Katta navbatchi, mayor Fazliddin Madrahimov o'zi faoliyat olib borayotgan xizmat haqida so'zlar kan, faxr bilan shunday dedi:

– Kunning 24 soatida navbatchilik qismi ishlab turadi. Hushyorlik, ogohlik doimo zarur. Ana shu ma'noda navbatchilik qismi fuqarolar bilan ichki ishlar organlari o'rtasida ko'prik vazifasini o'tamoqda, desam, mubolag'a emas. Murojaatlar umumlashmasidan ham shuni anglash mumkinki, aholi o'rtasida ichki ishlar bo'limiga ishonch katta.

Ha, chindan ham shunday. Xalq ishonchini oqlash, o'z umrini osoyishtalikni ta'minlashga safarbar etib kelayotgan fidoyi xodimlarimiz el baxtiga omon bo'lishsin.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.





Наши корреспонденты сообщают



## ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

На местах проводятся мероприятия по изучению исполнения постановления Президента «О мерах по созданию безопасной среды и дальнейшему повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений в махаллях республики в 2025 году» от 3 января 2025 года.

### ■ Кашкадарьинская область

Рабочей группой изучена деятельность «махаллинской семерки» схода граждан «Лолазор» Касанского района.

На основе постановления разработана «Дорожная карта», обсуждены указанные в ней пункты. В их числе использование инновационных технологий, установка камер видеонаблюдения, их интеграция с отделом внутренних дел.

Рассмотрена эффективность реализуемых мероприятий по предупреждению правонару-

шений и преступлений. На основе анализа даны поручения по устранению недостатков. Указано на необходимость расширения профилактических мероприятий, ускорение создания «образцовых дорожек» и «образцовых улиц».

Речь также шла о том, как идет адаптация и реинтеграция в общество амнистированных лиц, как решаются вопросы трудоустройства вернувшихся из мест заключения. Даны конкретные поручения от-

ветственным исполнителям.

Изучена также работа, осуществляемая в неблагополучной в криминальном плане махалле Дустлик. Управлением охраны в подъездах многоэтажных домов махалли установлены тревожные кнопки. Проверена их исправность, оперативность реагирования на вызовы. Даны поручения по интеграции в единую систему камер наблюдения, установленных в людных местах, обеспечению исправности домофонов.



### ■ Сурхандарьинская область



В Ангорском районе продолжается работа по мониторингу исполнения постановления. Органы прокуратуры совместно с Управлением внутренних дел области проводят комплексное изучение хода реализации данного документа.

Члены районного координационного штаба и рабочей группы обсудили проведенные мероприятия. Особое внимание было уделено необхо-

димости качественного и своевременного выполнения задач, определенных в «Дорожной карте», а также ведению ежедневного мониторинга эффективности принимаемых мер.

Рассмотрены вопросы исполнения поручений, данных на совещании по противодействию коррупции под председательством главы государства, обозначены первоочередные задачи.

### ■ Сырдарьинская область

## ВОСПИТЫВАЯ УВАЖЕНИЕ К ЗАКОНУ

Сотрудники УВД области в подшефной школе № 25 Мирзаабадского района организовали мастер-классы. Занятия провели преподаватели Сырдарьинского академического лицея МВД, охватив такие темы, как правовая грамотность, правовая культура и профилактика правонарушений среди молодежи.



Сотрудники УВД области проявили высокий уровень ответственности и профессионализма при организации мероприятия. Они не только координировали взаимодействие между школой и лицеем МВД, но и активно участвовали в обсуждениях с учащимися, отвечали на вопросы, приводили примеры из практики и делились личным опытом службы. Это позволило создать доверительную атмосферу и вызвать у школьников искренний интерес к занятиям.

Особое внимание было уделено установлению живого диалога с учащимися. Лекторы стремились не только донести информацию, но и выслушать мнение подростков, обсудить с ними актуальные вопросы и реальные жизненные ситуации. Такой подход укрепляет взаимопонимание между молодежью и представителями правоохранительных органов, формируя у подрастающего поколения чувство социальной ответственности.

ХУШЁРЛИК – ХИЗМАТ ТАЛАБИ

## КЕСИЛГАН АРҚОН БОЗОРГАЧА ЕТМАДИ

Тунги пайтда хизматдан қайтаётган вилоят ИИБ ЖТСБ Патруль-пост хизмати батальони 4-туманлараро отряди инспектори, сафдор Исмоилжон Қутлибоев Шовот туманининг «Бешмерган» маҳалласи ҳудудида мол етаклаб бораётган йигитга кўзи тушди. Бу ҳолат инспекторни бефарқ қолдирмади. Дарҳол машинасини тўхта-тиб, ўзини таништирди-да, йигитдан сўради:



– Бемаҳалда сигирни қаерга олиб боряпсиз?

– Бозорга, – деди йигит хавотирини сездирмасликка ҳаракат қилиб. – Сотмоқчиман. Рўзгорга пул зарур бўлиб қолди.

– Сигир ўзингизникими?

– Бошқа кимники бўларди.

– Ўзингизники бўлса, нега арқони кесилган?

Кутилмаган саволдан довдираб қолган йигит бир қўлидаги арқонга, бир ходимга қаради-да, сигирни ташлаб қоча бошлади. Шубҳаси тўғри чиққанидан хушёр торган инспектор бир зумда унга етиб олди...

Сафдор Исмоилжон Қутлибоевнинг хушёрлиги, хизмат вазифасига масъулият билан ёндашиши туфайли шовотлик К.Б.нинг жиноий қилмиши фожия этилди. Маълум бўлишича, у «Бешмерган» маҳалласидаги хонадонларнинг биридан сигирни ўғирлаб, бозорга сотгани олиб бораётган экан.

Сафдор Исмоилжон Қутлибоев ички ишлар органларида хизмат

қилаётганига эндигина тўрт йил бўляпти. Тошкент шаҳар ИИББ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальонида хизмат фаолиятини бошлаган лавҳамиз қаҳрамони отасининг бетоблиги сабаб фаолиятини Хоразм вилояти ИИБ шахсий таркиби сафида давом эттиришни сўраб шаҳар ИИББ бошлиғига мурожаат қилди. Ходимнинг оилавий шароитини ўрганиб чиққан бошқарма раҳбарияти унинг мурожаатини қаноатлантирди. Шундан сўнг у ҳозирги хизмат жойида иш фаолиятини давом эттирди. Мана шунга ҳам икки йилдан ошди.

Жорий йилнинг ўтган даврида турли ҳуқуқбузарликлар содир этган 172 нафар фуқарога нисбатан белгиланган тартибда маъмурий баённома расмийлаштирган. Маст ҳолда жамоат тартибини бузган 29 нафар шахсни хушёрхонага жойлаштирган. Шунингдек, 12 та жиноятнинг олдини олишга эришган.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

БИР ТУМАН ТАРИХИ

## ЖОНДОР ТИРИК МАВЖУДОТМИ ЁКИ УНВОН?

Жорий йилда Жондор тумани ташкил топганига 90 йил тўлди. 1962 йили Бухоро ва Ромитан туманлари таркибига киритилади. Орадан беш йил ўтгач, туман яна ўз мақомини олади. Туманнинг умумий майдони 5,17 минг кв.км, аҳолиси 185,5 минг нафардан ошиқ. Илгари туманда 9 та шаҳарча ва 13 та қишлоқ фуқаролар йиғини бўлган, ҳозирги кунда ҳаммаси 52 та маҳаллага айлантирилган. Шунингдек, бу ҳудудда тўртта йирик тарихий обиди: Маҳмуд Торобий дахмаси, Варахша ёдгорлиги, Шаҳри Ислон қалъаси ва Қизбиби меъморий мажмуаси мавжуд.

Туман табиати ҳам ўзгача. Ҳудуди асосан текислик, қисман ботқоқ ва шўрхоклик, шунингдек, қолган қисми Урганчўл ва Ўртачўл яйловларидан иборат. Текисликлар бағрида Учбош ҳамда Шўрқудук дўнгликлари учрайди. Иқлими кескин континентал, чўл иқлими. Баъзан Урганчўлдан гармсел эсиб туради. Баҳор сернам, ёз эса узоқ давом этади. Шу боис ҳам курук, жазирама иссиқ, куз қисқа ва қиши илиқ, баъзан аёзли келади.

Туман ҳудудидаги обикор ерлар дастлаб Зарафшон дарёсидан суғорилган. Аму-Бухоро машина каналининг, айниқса, Жондор тармоғининг ишга туширилиши туфайли ҳозирги кунда Амударё суви билан таъминланган. Чўл қисмини кумли, гипсли, гилли, кўнғир тусли сур, тақир ва шўрхок тупроқлар эгалланган. Ёввойи ўсимликлардан

камиш, рўвак, буғдойик, шўражриқ, кампирсоч, итгунафша, юлғун, шўрхок ерларда пашмакшўра, оқшўра, кумли чўлларда оқ саксовул, боялич, қуёнсуяк, селин ўсади. Ёввойи ҳайвонлардан эса кумли чўлда судралувчи ва кемирувчилар, қушлардан қирғовул, лойхўрак, сўфитўрғай, зарғалдоқ чумчуқ ва бошқалар яшайди.

«Жондор» сўзи хилма-хил маъноларни англатади. Аввало, силоҳдор, бу сарой лавозимларидан бири бўлган. Мовароуннаҳрда, хусусан, қоракхонийлар ва хоразмшўхлар давридаги ясовулбоши ҳам жондор дейилган. Шунингдек, салжукийлар даврида жондорлар кўриқчилик ва жаллодлик вазифаларини адо этган жангчилар бўлиб, уларнинг бошлиғи амири жондор унвонига эга бўлган. Улар сомонийлар даврида соҳиб ҳарос (амири ҳарос) деб аталган. Хоразмшўхнинг Такаш хужжатларида жондор



шурат (шахсий гвардия)нинг жондор кишиларидан ҳисобланган. Сўнги хоразмшўх Жалолоддин Мангуберди даврида (1220–1231) Шомволийларидан бири жондор унвонига эга бўлган. Топонимист олим С.Қораевнинг «Ўзбекистон вилоятлари топонимлари» (2005) асарида «жондор» сўзи тўғрисида қуйидаги маълумотлар берилган: «Жондор – қишлоқ, шаҳарча, Жондор тумани маркази. ...Жондор Бухорода «жаллод» маъносида бўлган. Ясовул (полиция) бошлиғи ҳам жондор дейилган».

Амир Ҳайдарнинг (1800–1826) шахсий котиби бўлиб ишлаган Мирзо Содиқ Мунши Жондорий Содиқ тахаллуси билан шеърлар ёзган ва ҳозиржавоб, ўткир зеҳнли киши бўлган. У Жондор қишлоғига сув келмай қолиб, қурғоқчилик бошланганда Бухоро амири номига қуйидагича ариза ёзган: «Нажотпаноҳ! Ҳамма нарса, хусусан, Жондор сув билан тирик». Адабиёт ва заковатни ҳурмат қиладиган Амир Ҳайдарга бу сўз ўйини жуда ёқиб тушган ва Жондор қишлоғига сув очишга

фармон берган. Чунки жондорнинг «тирик мавжудот» маъноси ҳам бор.

Туманда озиқ-овқат ва енгил саноат тармоқлари яхши йўлга қўйилган. Уларнинг аксарияти туман марказида жойлашган. Пластмасса, вино, консерва заводлари, нон, сут комбинатлари, Бухоро пахта тозалаш заводининг филиали, «Хадан» (Ўзбекистон–Хитой) қўшма корхонаси шулар жумласидандир.

**Мирзоқул АҲАДОВ**  
тайёрлади.

Бухоро вилояти.





IIV AKADEMIK LITSEYLARIDA

## SEN HAYOT GANJIDA DURRI BEBAHO...

Har qanday soha vakilining yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida ustozlarning o'rni katta. Ular bizning nafaqat kasb egallashimizda, balki to'g'ri va halol yashashimiz, jamiyatda o'z o'rnimizni topishimizda ham yo'l ko'rsatuvchi dono maslahatchidir. Komiljon Aliqulov IIV Surxondaryo akademik litseyida qariyb 10 yildan buyon o'quvchilarga huquqshunoslik fanidan dars berib kelmoqda.

– O'qituvchilik bobomeros, onameros kasb menga. Shundanmi, bolalarga ilm ulashsam, o'zimni baxtiyor sezaman, – deydi Komiljon Aliqulov. – Huquqshunoslik ham jiddiy, ham murakkab fan. Litseyimizdagi aksariyat o'quvchilarning kelajakdagi kasb tanlovi ayni shu fan bilan bog'liqligi bois uni qiziqarli tarzda o'tishga harakat qilaman. Bugun huquqini bilgan odam haqini ham, haddini ham taniy oladigan insonga aylanadi. Shuning uchun ham u barcha uchun kerakli ilmdir.

Akademik litseyda huquqshunoslik fani chuqur-

lashtirib o'tilgani bois malakali ustozlar qatorida Komiljon Aliqulov ham har bir darsni interaktiv usullardan foydalangan holda o'tishga harakat qiladi. Mashg'ulotlar davomida aqliy hujum, tezkor savol-javob, baliq skeleti, keys-stadi kabi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadi. Har bir mavzuni hayotiy misollar yordamida, o'z tajribasidan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Bu esa o'quvchi-yoshlarning ushbu fanni yaxshi o'zlashtirishiga yordam beryapti.

Qolaversa, o'quvchilarni huquqshunoslik bo'yicha bellashuvlar, fan olimpiadalari-



ga tayyorlashdan erinmaydi. Natijada respublikamizdagi barcha IIV akademik litseyi o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan huquqshunoslik bo'yicha fan olimpiadasida IIV Surxondaryo akademik litseyi o'quvchisi Dilrabo Sa'dullayeva

2021-yilda 3-o'rinni, 2023-yilda esa 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Kamtarlik fe'lini bezagan ustoz bilan suhbatlasharkansiz, uning har bir so'zi, harakatida aniqlik, qat'iyat borligini fahmlaysiz. Tabiiyki, lavhamiz qahramoni adolat

qaror topishi uchun kurashib yashaydigan avlodni shakllantirishga tirishadi. Shogirdlarining yutuqlaridan esa doim quvonadi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Surxondaryo viloyati.

BOLANING BEGONASI BO'LMAYDI

## OTA-ONA MAS'ULIYATSIZ BO'LSA...

Navoiy viloyati IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga olib kelingan bolalar bilan avvalambor markaz psixologi suhbatlashadi. Sababi ularning ruhiy holati boshqa tengdoshlarinikidan keskin farq qiladi.

– Bolalarning ba'zilari kattalarga ishonishmaydi, hatto nafrat bilan qaraydi. Bundaylarning ishonchiga kirish oson kechmaydi. Ularning qarashlarini asta-sekin ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilaman. Bu yoshda puxta bilim olishlari, oldilariga yaxshi maqsad qo'yishlari kerakligini tushuntiraman. Ayni paytda markazdagi 8 nafar qiz va 3 nafar o'g'il bola bilan psixologik trening o'tkazayapman. Ularning aksariyati nosog'lom muhitda va to'liq bo'lmagan oilada voyaga yetishyapti. Shu sababli zarur mashg'ulotlar va yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar tashkil qilamiz, – deydi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi psixologi, kapitan Gulsara Boboqulova.

Malika (ismi o'zgartirildi)ning onasi 5 yil oldin turmush o'rtog'i bilan ajrashgan. Shundan so'ng chet elga ishlash uchun ketgan. Qiz hozirda keksa buvisining qaramog'ida. O'tgan davr ichida balog'at yoshiga yetdi. Dugonalari bilan tun yarmigacha ko'chada yuradigan odat chiqardi. Buvisi koyisa, unga gap qaytarardi.

Tungi nazorat-reyd tadbirlarining birida u tamaki chekayotgan bir ahvolda xodimlarga ro'baro' bo'ldi. Markazga keltirilgan kuni Malikaning ko'ziga hamma dushmandek ko'ringdi. Olib borilgan psixologik-profilaktik suhbatlar uning fe'lini asta-sekin ijobiy tomonga o'zgartira boshladi. Markaz oshpazi Muyassar opa uning taom tayyorlashga qiziqishini payqab yoniga



oldi. Qiz markazdagi boshqa bolalar bilan yaxshi munosabat o'rnatishga harakat qildi. Onasi bilan telefon orqali suhbatlashganida, undan kechirim so'radi. Qizning onasi va buvisi markaz xodimlaridan minnatdor.

Bu yerda faoliyat olib borayotgan huquqshunoslar farzandiga tazyiq va zo'ravonlik o'tkazayotgan yoxud uning tarbiyasiga befarq, mas'uliyatsiz ota-onalar bilan suhbatlashishib, loqaydligi qimmatga tushishini tushuntirishadi. Ularni qonunchilikda bu borada javobgarlik ko'zda tutilgani haqida ogohlantirishadi. Asilbek (ismi o'zgartirildi) bilan bog'liq holat bunga misol bo'la oladi.

U 14 yoshda, oilada farzandlarning to'ng'ichi. Dastlab maktabda a'lochilar safida edi. Otasi novvoy, onasi esa oziq-ovqat do'konida sotuvchi. Ularning qistovi tufayli kunda-kunora non

sotishga yoki do'konda savdo qilishga majbur bo'ldi. Natijada ayrim darslarni qoldirishiga to'g'ri keldi. Fanlarni o'zlashtirishda qiynala boshladi.

Profilaktik tadbir chog'ida markaz xodimlari bolaning ota-onasiga bu masalaga jiddiy qarash lozimligini, maktabda ta'lim olish majburiyatini, ma'naviyatli, o'qimishli bo'lish zamon talabi ekanligini tushuntirishdi. Shuningdek, ularga zimmasidagi ota-onalik majburiyatini bajarmagani uchun ma'muriy javobgarlik borligini ham eslatishdi. Bu masalaga mahalla faollari va hududiy profilaktika inspektori ham aralashishdi. Hozir Asilbek maktabda boshqa bolalar kabi ta'lim olyapti, o'zlashtirishi ham yaxshi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



# TO'YLARIMIZ HAQIDAGI O'YLARIMIZ

**Mehmondo'st xalqimiz. Elga osh berish, ko'pning duosini olishga bo'lgan intilish milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagiga aylangan. To'ylarga yetkazsin, har kuning to'y bo'lsin, degan tilak har birimizga doimiy hamroh...**

Asli ham shunday, to'y – insonlarning ne-ne orzulari, quvonchi, baxt-u shodmonligi bilan qorishib ketgan yaxshi kun. Uning o'ziga xos qonun-qoidalari, ota-bobolardan meros urf-odatlar bor. Buni yaxshi tushungan kishi aslo kam bo'lmaydi. Shunga qarab o'zi, oilasi, xalqi va yurtiga manfaat keltiradigan reja asosida yaxshi kunini o'tkazadi. Ana shu xislati uning ma'naviyatini ko'rsatish barobarida jamiyatni ortidan ergashtirishga ham xizmat qiladi. Biroq keyingi vaqtlarda oramizda «to'y to'ydek bo'lsin...», deya fikrlavchilar ushbu marosimga turfa «yangiliklar» kiritib, azaliy an'analarning «boyib» borayotgani hech birimizga sir emas. Xo'sh, bugun ushbu «tashabbus»lar bizga qanchalik naf yoki ziyon yetkazmoqda? Masalaning o'ylab ko'riladigan tomoni shunda.

To'ylardagi isrofgarchiliklarning oldini olish, kimo'zarchilikka barham berish, to'y-u tantanalarni ortiqcha sarf-xarajatlarsiz, ixcham, chiroyli o'tkazish masalasi hatto davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini yaxshi bilamiz. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi Kengashlari 2019-yil 14-sentabr kuni «To'ylar, oilaviy tantanalalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni qabul qilgan edi. Qonun bilan teng yuridik kuchga ega bo'lgan mazkur hujjat 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Unda oilaviy tadbirlar belgilangan qat'iy talablar asosida o'tishi belgilab qo'yilgan. Xususan, milliy an'analarga yot, odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan turli shoularni, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan to'ylar, oilaviy tantanalardan oldingi, tadbir davomidagi va undan keyingi qo'shimcha rasm-rusumlarni («kuyov navkari», «chorlar», «ota ko'rdi», «sep yoydi», «quda chaqirdi», «kuyov chaqirdi», «kelin chaqirdi», «tog'ora yuborish», «pul sochish» va hokazolarni) o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi qayd etilgan.

Shu o'rinda pandemiya sabab karantin e'lon qilingan vaziyatni ham yodga olaylik. O'sha kezlarda joni ko'ziga ko'ringan odamlarimiz shundoq ham turli marosimlarni bajonidil qisqartirishgani bor gap. Lekin vaziyat iziga tushishi bilan oq yana o'zligimizni yo'qotishni bosh-

ladik. Chunki yaxshi niyat bilan to'y boshlagan har qanday kishining ko'nglida «Bir to'y bo'lsinki, ovo-zasi olamni tutsin», degan o'y va «hoy- u havas» azal-azaldan qon-qonimizga singib ketganda. O'tgan asrda tasvirga olingan «Mahallada duv-duv gap» filmi qahramoni Oyposhshaning bitta qo'zini o'nta qo'y, deya maqtanishini bir eslang. Ana shu «havas» ko'pchilikni nimalarga yetaklamaydi, deysiz...

Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bundan bir asr muqaddam «**To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovropoyilardak tarraqqiy etarmiz va o'zimizda, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a**



**zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur»,** deya kelajak avlod taqdiriga qayg'urib, fikr bildirganida qanchalar haq edi. Chunki o'tgan yuz yildan ortiq muddatda ham bu marosim doirasidagi dabdababozlik qisqarish o'rniga «zamonasiga yarasha-da», degan izoh bilan tobora kengayib borayotganiga nima deysiz?

Manbalarda Mahmudxo'ja Behbudiy katta boylik va mansab egasi bo'lishiga qaramay 1909-yil 15-aprelda Maqsud Xo'ja ismli o'g'liga xatna to'yi qilib, 1000 rubldan ham kam pul sarflagani, to'yga ketadigan ortiqcha sarf-xarajat o'rniga Samarqanddagi kutubxonaga Rossiya va Turkiyadan kitoblar xarid qilib keltirgani qayd etilgan. Bugun dabdabali to'y o'tkazishni katta obro' deb bilganlar va shuning harakatida yelib-yugurayotganlar dilbandining ertangi kuni, kelajagi haqida qay tariqa qayg'uradi? Avlodining davomchilari dunyoga dong taratadigan yetuk olim yoxud adib bo'lishini, yurtga, insoniyatga

naf keltirishini orzu qilisharmikin? Va bu orzu yo'lida ham xuddi to'y taraddudiga chog'langandek tishishqoqlig-u shahdini namoyon etarmikin hech?! Tilga olgan mavzuimizga bu savollar ostidan nazar tashlasak, qay jihatlarga kulib, qaysinisidan kuyamiz?..

Aytgancha, bugun axborot texnologiyalari rivoji dabdabali to'ylar tasvirlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishdek «odat»ni paydo qildi. Bu tasvirlardagi boylik va hashamatni ko'z-ko'zlovchi udumlar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'satmasligiga ishonchingiz komilmi? Yo'q, albatta. Chunki, to'yga taniqli san'atkorlarni chorlab, to'yimning dovruq'ini yetti mahallaga doston qilaman, deganlar va ularga ko'r-ko'rona ergashayotganlar qancha. Asli-

**...Amakim shunaqa to'y berib elga, Ertangi ovoza gashtini surar. Topgan-tutganini sovurib yelga, Eshik panasida bo'zrayib turar.**

Onaning ham mushtdek yuragi, butun borlig'i farzandi uchun fido. Ammo ba'zan mahalla-ko'yda yuzlari zahil tortib qolgan ayol, ona o'z salomatligini tiklashni ortga surib, «qudalar oldida izza bo'lmaslik uchun» qizining to'yiga qimmatbaho, sara sarpolar olish ilinjida misqollab pul yig'ayotganini eshitib, beixtiyor ruhga og'riq, mahzunlik cho'kadi... Ko'pincha moddiy manfaatlarni ko'zlab oila qurayotgan yoshlar hech qancha vaqt o'tmasdan «Xarakterimiz mos kelmadi», degan vaj bilan ajralib ketayotganligi, ikki o'rtada go'daklar tirik yetim bo'lib qolayotganligi ham, afsuski, uchrab turgan achchiq haqiqat.

Oramizda «Xursandchilikning nima aybi bor, sizga ne tashvish?», deya uzoqni ko'rmay fikrlaydiganlar ham yo'q emas. Shunday insonlar kundalik turmushda dabdabali to'y uchun ko'tarilgan qarz-qavola oilalarda turli notinchliklarga sabab bo'layotganini ko'rmayaptimi? Ayniqsa, yangi hayot boshlagan yoshlar kelajak rejalarini tuzish, baxtdan sarmast bo'lish o'rniga turli ko'ngilsizliklarga duch kelayotgani bilan bog'liq misollar ko'p. Shunga qaramay, «To'kis o'tkazish kerak» degan fikrga mahkam yopishib olamiz-u, ma'naviy o'pirilishlar haqida o'ylash xayolimizdan qochadi. Bu yoshlarning o'z o'rnida kattalarning ham moddiyatni birlamchi sanab, oila, nikoh, farzand tarbiyasidek muqaddas burch oldida mas'uliyat hissini yo'qotishi emasmi?

Xullas, to'ylarimiz haqidagi o'ylarimiz xo'p va ko'p, qolaversa, tinchlik bermaydigan dardga o'xshaydi. Qachonki, uni davolasak, ko'ngil xotirjam bo'ladi. Ammo bu og'riq birgina kishining emas, butun jamiyatniki bo'lsa-chi? Bunga butun el birgalikda kurashib, shifo axtarmasa, u gazak olib ko'payasa ko'payadi-ki, aslo ortga chekinmaydi. Qachongacha «To'y qilsak, uni el qatori o'tkazamiz», deymiz. Axir el kim? O'zimiz emasmi? Demak, odatlarning yaxshisi ham, ko'p xarji ham o'zimizniki. Keling, bunda bir-birimizga yaxshi ma'noda ko'zgu bo'lib, xayrli amallarga bosh qo'shsak, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA.**



Maqolani qoraqalpoq tilida o'qish uchun QR-kodni skaner qiling.



## Урок духовности и просвещения

# РАЗМЫШЛЕНИЯ О НАШИХ СВАДЬБАХ

Свадьба в Узбекистане – не просто торжество, это важный этап в жизни каждой семьи, окутанный множеством обычаев. Это яркое, многолюдное и глубоко укорененное в многовековых традициях событие. Она является не просто союзом двух сердец, но и важным социальным ритуалом, объединяющим большие семьи и демонстрирующим достаток и уважение. Однако в последние годы все чаще можно услышать о стремлении к более экономному проведению торжеств. В современном мире, когда реалии диктуют свои условия, многие задаются вопросом: как сохранить красоту и значимость этого события, избежав при этом излишнего расточительства?

Узбекские торжества традиционно отличаются своим размахом и щедростью. Обильное угощение, множество гостей, дорогие подарки – все это создает атмосферу праздника, но зачастую ложится непосильным бременем на бюджет молодой семьи. И эти традиции, безусловно, требуют переосмысления.

В Узбекистане уделяется большое внимание вопросу разумного проведения свадеб и других семейных торжеств. 14 сентября 2019 года было принято Совместное постановление Кенгаша Законодательной палаты и Кенгаша Сената Олий Мажлиса «О дальнейшем совершенствовании системы регулирования свадеб, семейных торжеств, торжеств и церемоний», которое направлено на предупреждение расточительства и соблюдение этических норм. Согласно этому постановлению, определены следующие основные принципы проведения свадеб:

**компактность** – сокращение числа гостей и отказ от проведения излишних мероприятий;

**умеренность** – разумное использование финансовых средств, отказ от излишеств в угощении и оформлении;

**сохранение традиций** – уделение внимания обрядам, имеющим духовную и культурную ценность.

### Почему задумались об экономном проведении

Несмотря на глубокое уважение к традициям, в современном Узбекистане все чаще задумываются об экономии при проведении свадебных торжеств. Многие семьи начали пересматривать свои расходы, в том числе и на свадьбы. Желание провести пышную свадьбу часто приводит к тому, что семьи берут большие кредиты, которые потом приходится выплачивать годами. Ныне молодое поколение все больше ценит практичность и рациональность. Для многих важнее начать совместную жизнь без долгов, чем потратить огромную сумму на один день. Хотя свадьбы сохраняют свою уникальность, некоторые молодые пары видят альтернативные, более скромные форматы свадеб. Многие начинают понимать, что огромные расходы на декор, артистов не всегда оправданы, особенно если эти средства могли бы быть направлены на более важные цели, такие как покупка жилья или образование.

Важную роль в пропаганде разумного проведения свадеб

играют традиционные институты самоуправления – махалли и их уважаемые старейшины, а также движение «Оқила аёллар». В махалле сегодня действует структура в составе председателя махалли, помощника хокима, лидера молодежи, женской активистки, инспектора профилактики, социального работника и налогового инспектора – так называемая «махаллинская семерка». В укреплении здоровой духовно-нравственной среды в махалле большое значение имеет деятельность активистов. Махалля традиционно является центром общественной жизни. Старейшины, обладая авторитетом и жизненным опытом, проводят разъяснительную работу среди



населения, призывая к умеренности и отказу от излишних трат на свадьбах и других семейных торжествах. Они могут выступать посредниками в семейных спорах, помогая находить компромиссные решения и снижать давление на молодые семьи. Их мнение является весомым аргументом в пользу разумного подхода.

Немаловажную роль играет движение «Оқила аёллар», которое объединяет авторитетных и уважаемых женщин, активно участвующих в общественной жизни, в воспитании молодежи и укреплении семейных ценностей. «Оқила аёллар» проводят беседы с молодыми парами и их родителями, разъясняя важность рационального планирования бюджета, предостерегая от непомерных долгов и акцентируя внимание на духовной составляющей брака, а не на внешней атрибутике.

Эти институты, опираясь на традиционное уважение к старшим и мудрость опытных людей,



способствуют формированию общественного мнения в пользу экономичных и разумных свадеб.

В современном Узбекистане молодым людям предоставляются различные возможности для получения льготных кредитов на приобретение жилья и получение образования. В этой ситуации становится особенно очевидным,

счастливой семейной жизни. Это понимание того, что истинная ценность брака заключается не в количестве потраченных средств, а во взаимопонимании двух любящих сердец.

### Плюсы экономного проведения свадеб

**Отсутствие или меньшая долговая нагрузка.** Главное преимущество – возможность начать семейную жизнь без финансовых обязательств. Экономия средств: возможность направить сэкономленные деньги на обустройство семейного очага.

**Меньший стресс.** Организация скромной свадьбы обычно требует меньше времени и усилий, что снижает уровень стресса для молодоженов и их семей.

**Возможность проявить креативность.** Экономия может стимулировать поиск нестандартных и оригинальных решений в оформлении и проведении свадьбы.

\* \* \*

Традиционная узбекская свадьба – это красивый и значимый ритуал, но современная реальность диктует свои условия. Стремление к более экономному проведению свадеб – это не отказ от традиций как таковых, а скорее их адаптация к новым экономическим и социальным реалиям. Молодые пары и их семьи все чаще осознают важность финансовой стабильности и предпочитают разумные траты показной роскоши.

Найти баланс между уважением к традициям и финансовой целесообразностью – вот главная задача при планировании современной свадьбы. Возможно, будущее свадеб заключается в сохранении самых важных символических обрядов, но при этом в более рациональном и осознанном подходе к организации и расходам. Главное, чтобы этот особенный день стал началом счастливой и благополучной семейной жизни, независимо от масштаба торжества.

**Азиза БОХОДИРОВА,**  
майор.



▶ **HAMKORLIKDA HIKMAT KO'P**

## OILALARDA TINCHLIK SHAMOLI ESA BOSHLADI

**Katta leytenant Jaloliddin Shodmonqulov 1991-yilda tug'ilgan. 2020-yilda Boyovut tumani «Ma'naviyat» mahallasiga profilaktika inspektori lavozimiga tayinlangan. Dastlabki kunlarida noq odamlar uni to'y-ma'rakasiga aytishdi. Oldiniga biroz tortinib turgan yigit keyin elga qo'shildi. Bunday yig'in-u tadbirlarda odamlarni kuzatdi. Mahallada ishlab pishdi. Ba'zan tajribasizligi ortidan xato qilib, dakki ham yedi. Ammo asta-sekin yurish-turishiga qarab odamlarning qandayligini biladigan, egri niyatli kimsalarni tez ajratadigan bo'ldi.**

Bugun u xizmat faoliyatini «Olmazor» mahallasida davom ettirmoqda. Bu yerga kelgach, ko'p o'tmay qishloqning ulug'lari kim-u, kuni bilan dalada mehnat qiladiganlari kim, bekorchilikdan «gap-so'z» qiladiganidan tortib, bo'lar-bo'lmasga arazlab, janjal chiqaradiganigacha bilib oldi. Aholi xatlovi paytida esa, xonadonmaxonadon kirib mingga yaqin xonadon ichidan o'ttiztasini ajratib, ularni alohida toifaga kiritdi. Aytaylik, ulardan birida er muqaddam o'g'irlik bilan ikki marotaba sudlangan. Bo'yni ishga yor bermaydi. Demak, sal qiynalsa, o'g'irlikka qo'l urishi mumkin. Dar-



rov qiziqishini so'rab bildi. So'ng tuman markazidagi avtomobil ustaxonalaridan biriga olib bordi. Uni usta yordamchi sifatida ishga qabul qilishdi.

«Olmazor» mahallasi katta yo'l bo'yida joylashgan. Shu sababdan Boyovut – Guliston trassasi bo'ylab tadbirkorlikka sharoit bor. Bundan unumli foydalanishga qaror qilish-

di. Aholiga targ'ibot qilib, tuman hokimligi ko'magida uchta do'kon, ikkita kafe, ikkita ishlab chiqarish korxonasi tashkil qilindi.

Kafelar o'z xaridorlariga ega bo'ldi. Mahallaning yosh yigitlari metallni qayta ishlash, darvoza, panjara, arava yasashni o'rganib olishdi. Natijada o'ttizdan ortiq odam ish bilan ta'minlandi. Ishga joylashganlar orasida jinoyatga moyil oila vakillari ham bor. Ularning ijtimoiy ahvoli yaxshilanib, oilalarida tinchlik shamoli esa boshladi.

Katta leytenant Jaloliddin Shodmonqulovni mahalladagi ta'lim muassasasi o'quvchilari yaxshi taniydi. Chunki, sport, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa ommaviy tadbirlarda bu xodimni ko'p ko'rishadi. Shundanmi, tortinmay savol berishadi. So'rganlariga jo'yali javob olishadi. Mana, bir necha yildirki mahalladagi yoshlar orasida jinoyat sodir bo'lgani yo'q. Mahalladagi kriminogen vaziyat esa barqaror.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati

▶ **ЗАМОН БИЛАН ҲАМОҲАНГ**

## ТЕЛЕГРАМ-БОТ СИЗНИ ҲИМОЯЛАЙДИ

**Бугун фирибгарлар ижтимоий тармоқлар орқали фуқароларни ишонтириш ва «чув тушириш»нинг турли хил усулларини ўйлаб топмоқда. Афсуски, юртдошларимиз доимий равишда кибержиноятлардан огоҳлантириб келинаётганига қарамасдан, уларнинг тузоғига тушган жабрланувчилар сони ҳали-ҳануз юқориликка қолмоқда.**

Таҳлилларга кўра, кибержиноятчилар канал ва гуруҳларда тарқатаётган зарарли .ark иловасини мобил қурилмасига билмасдан ўрнатиб қўйган шахснинг akkaунти орқали сониялар ичида ўртача 1200 га яқин кишига вирус юборилапти. Бундан келиб чиқадики, кибермаконда кузатилаётган янги

турдаги кибержиноятлар ва улардан ҳимояланишга оид маълумотларни худди шу каби тезликда тарқатиш замон талабига айланмоқда.

Юқоридагиларни инобатга олиб, вилоят ИИБ Тезкор-қидирув хизмати Киберхавфсизлик бўлими ходимлари томонидан «Хавфсиз интернет ёрдамчиси» телеграм боти ишлаб чиқилди. Мазкур телеграм ботни канал ва гуруҳларга улаб, унга админлик ҳуқуқи берилса, у аудиторияни янги пайдо бўлаётган кибержиноятларнинг турлари ҳамда улардан ҳимояланиш усуллари, киберхавфсизлик бўлиmlари томонидан фoш этилаётган кибержиноятлар ва соҳага доир бошқа маълумотларни доимий тарзда улашиб боради.

Бундан ташқари, киберхужумга учраб зарарланган телеграм akkaунтлари номидан сиз кузатиб бораётган канал ва гуруҳларга зарарли .ark илова ёки фишинг ҳавола юборилса, «Хавфсиз интернет ёрдамчиси» телеграм боти уларни автоматик тарзда аниқлаб, ўчиради. Ҳозирда вилоятда мавжуд бўлган 500 га яқин телеграм гуруҳларини телеграм ботга уланиши натижасида 505 та шубҳали хабарни ўчирди ва мазкур ижтимоий тармоқ аудиториясининг хавфсизлиги таъминланди.

Демак, «Хавфсиз интернет ёрдамчиси» ([https://t.me/kiber\\_yordamchi\\_bot](https://t.me/kiber_yordamchi_bot)) телеграм ботини гуруҳга админ сифатида қўшиш кетма-кетлиги қуйидагича:

- биринчи ботнинг линкини кўчириб оламиз;
- гуруҳга кириб, «Аъзолар қўшиш» бўлими орқали «аъзоларни қидириш» жойида бот линкини



жойлаймиз. Шунда ботни чиқаради, уни белгилаб гуруҳга қўшамиз;

– шундан кейин «Аъзолар» бўлиmidан ботни топамиз ва уни админ сифатида белгилаб қўямиз ва бот ишлай бошлайди.

Сизга ҳам «Хавфсиз интернет ёрдамчиси» телеграм ботидан фойдаланишни тавсия қиламиз. Ушбу бот мутлақо хавфсиз ва текин бўлиб, киберхавфсизлик талабларига тўлиқ жавоб беради. Телеграм ботини канал ёки гуруҳга улаб, админлик ҳуқуқини бериш орқали ўзингиз ва кузатувчиларингиз хавфсизлигини таъминлаган бўласиз.

**Сухроб МУҲАММАДИЕВ,**  
капитан.

Қашқадарё вилояти.



■ **Навоийская область****СОЦИАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ ОСТУПИВШИХСЯ**

В соответствии с Указом Президента Узбекистана «О помиловании группы лиц, отбывающих срок наказания, чистосердечно раскаявшихся в содеянном и твердо вставших на путь исправления» изучены проблемы помилованных из Навоийской области. На встречу с ними пришли прокурор области, начальник областного УВД, руководители управлений здравоохранения, сокращения бедности и занятости, организации процесса образования Департамента духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения МВД.

По итогам встречи разработана адресная программа мер в данном направлении. Обеспечена занятость 7 помилованных, 20 человек в тот же день прошли медицинский осмотр и получили необходимые рекомендации. Всем лицам, вышедшим на свободу, выдана единовременная материальная помощь. Четырем гражданам оформлены идентификационные ID-карты.

Мероприятия по социальной адаптации продолжаются.

**Махлиё ХОЛОВА,**  
соб. корр.



## Преступление и наказание

# ИСКУСНЫЙ МАХИНАТОР

**По части мошенничества жителя махалли Токчилик Шараф-Рашидовского района Джизакской области Э. Х. можно назвать искусным манипулятором на рынке жилья. Будучи управляющим строительной фирмы, он давал обещания налево и направо, получая средства граждан в качестве первоначального взноса на покупку недвижимости.**

Заверив, что граждане станут обладателями заветных квартир в многоэтажном доме, возведенном в махалле Токчилик, махинатор получил с Ш. Х. 32 миллиона сумов, с И.О. – 31 миллион 200 тысяч сумов и потратил их на собственные нужды. От желавших приобрести квартиры в строящемся в махалле Заргарлик города Джизака многоквартирном доме получил огромные суммы в счет начального взноса.

Дальше – больше. Заключив договор о реализации квартир на восьмом этаже восьмиэтажного дома в махалле имени Мирзо Улугбека города Джизака, прикарманил 118 миллионов сумов гражда-

нина Г. М. и 110 миллионов сумов Р. Я. Его не останавливали моральные нормы. Мошенник также присвоил 126 миллионов 300 тысяч сумов, выделенных хокимиятом для обеспечения жильем пяти нуждающихся женщин, и 180 миллионов сумов, внесенных в качестве первоначального взноса для потерявшей кормильца М. Н.

Мошенник использовал и другие способы легкой наживы. Произведя оценку двух «Дамасов» М. М. на 210 миллионов сумов, прикарманил их, заверив, что средства пошли на уплату взноса за жилье. Продав свою «Ласетти» гражданину В. Х. за 15 тысяч долларов США, не оформил машину на имя



нового владельца. Не заплатил 135 миллионов сумов Т. М., у которого приобрел стройматериалы. Составив фиктивные документы о том, что на ремонт больницы в Зарбдарском районе израсходовано 949

миллионов сумов, прикарманил из них 286 миллионов 269 тысяч сумов.

Не оприходовав в банке средства граждан в размере 5 миллиардов 372 миллиона сумов, уклонился от уплаты налога.

При этом, пострадавшие продолжали ему доверять свои средства несмотря на то, что обещанные сроки сдачи квартир отодвигались. Э. Х. обновлял договоры, ставя новые даты вручения ключей от квартир. Мошенник не стеснялся дурачить граждан таким образом. Получив от очередной жертвы 600 миллионов сумов, дал расписку, что имеет задолженность от других в размере 900 миллионов сумов.

Когда люди начали заселяться в новые дома, клиенты Э. Х. наконец поняли, что обмануты. Они обратились в органы внутренних дел. Были приняты соответствующие меры. Мошенник теперь проведет более 8 лет за решеткой.

**Ойбек  
АЛЛАБЕРДИЕВ,**  
капитан.

Джизакская область.



PROFILAKTIKA XIZMATI

## «YASHIL» TOIFA TOMON

Chirchiq shahridagi Amir Temur nomli mahallada uch mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ular asosan, dehqonchilik, chorvachilik, tadbirkorlik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi. Osoyishtalikni ta'minlash uchun barcha zarur choralar ko'rilayotgan mahalla o'tgan yil yakuniy holatiga ko'ra, «qizil» toifada e'tirof etilgan. Bu o'z-o'zidan profilaktika inspektori hamda mahalla yettiligi vakillarini jiddiy hamjihatlikka chorladi.

– Ushbu «qizil» toifadagi mahallada faoliyat boshlaganimga 8 oydan sal oshayotgan bo'lsa, hamkor tashkilotlar, faollar bilan yakdillikda ish jarayonini tubdan o'zgartirdik. Bu, albatta, o'z natijasini ko'rsatishni boshladi. Yil boshidan hozirga

qadar birorta jinoyat yoki ko'ngilsiz holatlar qayd etilmadi. Hushyorlik va natijadorlikni mana shunday doimiy saqlab qolishimiz va tez fursatlarda «qizil»dan chiqishimiz shart!, – deydi profilaktika inspektori, leytenant Mahmudsulton Qadamov.



Mahallada muqaddam sudlanganlar, probatsiya nazoratidagilar hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha muntazam profilaktik suhbatlar olib borilmoqda. Uzoq muddat chet ellarda yurgan, yashash manziliga qaytgan va xorijiy davlatlarda ishlash istagi bor fuqarolarga ham yordam qo'llari cho'zilmog'da. Nizoli oilalarning ahvoli mahalla xodimlari bilan birgalikda o'rganilib, bartaraf etish choralari amalga oshirilmoqda.

Mahalladan xorijga ishlash uchun ketgan 200 nafardan ortiq fuqarolarning oilasi va ularning mehnat sharoitlari borasida har kuni o'rganishlar olib

borilayotgan bo'lsa, ishga joylashish masalasidagi 80 ga yaqin murojaatlar ko'rib chiqish uchun tegishli idoralarga yuborilgan. Hali sohaga kirib kelganiga ko'p bo'lmagan yosh inspektor Mahmudsulton Qadamov qiyin pallaslarda otasi, iste'fodagi podpolkovnik Xudoyshukur Saloyevdan yo'l-yo'riqlar oladi. Uning akasi, katta leytenant, Muhammad Qadamov ham otasi izidan borib, huquq-tartibot idoralari faoliyat yuritmoqda.

O'ylaymizki, umidli xodim tez orada o'z mahallasini «qizil» toifadan chiqarishni uddalaydi!

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

KECHA

VA

BUGUN



Xorazm viloyati IIB JTSB Kinologiya bo'linmasi.

## YANGI UYG'ONISH SARI

**Toshkent shahri.** Yakkasaroy tumani IIOFMB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Rasul Masharipov «Ma'naviyat oyligi» doirasida «Men o'qigan maktab» shiori ostida o'zi o'qigan Mirzo Ulug'bek tumanidagi 112-sonli maktabda bo'ldi. Ta'lim muassasasi o'qituvchilari va o'quvchilari bilan uchrashuv tashkil etildi. R.Masharipov maktabda o'qib yurgan kezlarda fan olimpiadalarida ishtirok etib, munosib o'rinlarni egallagan, sportning basketbol, voleybol va ko'pkurash yo'nalishida sport ustasi nomzodi darajasigacha ko'tarilgan. Bu yutuqlar esa uni kelgusida ichki ishlar organlari xodimi bo'lishida alohida o'rin tutgan. U o'zi o'qigan maktabiga kitoblar sovg'a qildi.



**Namangan viloyati.** IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Namangan viloyatida joylashgan 7552-harbiy qism shaxsiy tarkibi Pop tumanida joylashgan Markaziy axborot kutubxonasiga borishdi. Ular kutubxona faoliyati bilan tanishib, a'zo ham bo'lishdi. Shuningdek, huquqqa oid kitoblar, taniqli yozuvchi va shoirlar asarlari bilan tanishishdi.



**Surxondaryo viloyati** Angor tumani IIB xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Zakovat» intellektual o'yini qizg'in bahslarga boy o'tdi. Kishini o'ylantirib qo'yadigan mantiqiy savollarga javob topishda 3 ta jamoa ham faollik ko'rsatdi. Natijada, «Yosh akademiklar» – 1-o'rinni, «Qalqon» jamoasi 2-o'rinni, «Lochinlar» jamoasi 3-o'rinni egallashdi.




**Navoiy viloyati.** «Kitobxon millat» shiori ostida tashkil etilgan kitob yarmarkasidan o'zbek milliy va jahon adabiyoti durdonalari, ilmiy-publitsistik va detektiv janrdagi mingga yaqin kitoblar o'rin oldi. Akademik litsey o'quvchi-yoshlari mazkur yarmarkada kitoblarni kelishilgan narxlarda sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishdi.



**Jizzax viloyati.** Oylik doirasida soha vakillari ishtirokida kitob yarmarkasi tashkil qilindi. Shuningdek, tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi xodimlarining viloyat ichki ishlar organlari tarixi muzeyiga sayohati uyushtirildi. Bu kabi tadbirlar hududiy ichki ishlar boshqarma va bo'limlarida ham tashkil etilmoqda.



## БЫЛ ОДАРЕННЫМ ХУДОЖНИКОМ



Пётр Шатрашанов родился 21 июня 1918 года в Ульяновской области. С 1935 по 1940 годы учился в Пензенском художественном училище. После войны, с 1945 по 1950 годы, служил в 1 Гаубичном артиллерийском полку, где занимал должности начальника топовычислительной команды и начальника библиотеки полка.



С января 1954 года работал художником учебных газет ТуркВО. С мая 1954 года до выхода на пенсию в августе 1979 года занимал должность художника в газете ТуркВО. На этом посту он создавал иллюстрации, карикатуры, оформлял полосы, делая издание наглядным и интересным для читателей.

За годы работы Шатрашанов внес значительный вклад в визуальный стиль газеты. Его работы отличались точностью, вниманием к деталям и художественным вкусом. Он не только оформлял номера, но и разрабатывал макеты спецвыпусков, посвященных важным событиям в жизни общества.

Талант художника проявлялся не только в оформлении, но и в умении передавать через рисунок дух времени. Его карикатуры на армейский быт, дружеские шаржи на коллег и зарисовки на различные темы пользовались популярностью среди читателей. Именно он первым придумал и нарисовал шапку газеты «На посту», создав ее узнаваемый стиль, который долгие годы оставался неизменным. Благодаря его труду издание стало более живым и выразительным, сохранив уникальную художественную атмосферу.

Соб. корр.  
 Фото из архива.

### Советы книголюбца

## ИСТОЧНИК ЗНАНИЙ И МУДРОСТИ

Книги – это не только источник знаний, но и житейской мудрости. В них часто описываются жизненные ситуации, взятые из обычного быта. Чтение помогает мне находить подход к людям и лучше разбираться в непростых моментах, с которыми сталкиваюсь на службе.

Я работаю инспектором профилактики ОПП СОБ УВД Бухарской области. В мои обязанности входит и урегулирование семейных конфликтов, беседы с теми, кто может оступиться. Часто в этих разговорах привожу примеры из книг – они понятны и близки многим.

Некоторые говорят, что нет времени на чтение. Но, по правде говоря, это отговорки. Есть выражение: читающий всегда на шаг впереди того, кто просто смотрит телевизор.

В 2024 году я занял первое место на районном этапе конкурса «Лучший книголюб» среди сотрудников органов внутренних дел и стал призером на областном. А в 2025 году, на конкурсе ко Дню защитников Ро-

дины, вновь стал лучшим в районе и занял третье место в области.

С удовольствием читаю классику: «Путешествия Гулливера», «Робинзон Крузо», «Граф Монте-Кристо», «Сто лет одиночества». Недавно снова перечитал «Мартина Идена» Джека Лондона, который впервые открыл для себя еще в школе.

Это история простого моряка. Он влюбляется в девушку из высшего общества, хочет стать достойным ее внимания. Мартин – драматическая личность. «Мартин Иден» – многогранный роман, который заставляет задуматься, взглянуть на многие вещи под другим углом.

Акмал ОЧИЛОВ,  
 лейтенант.

Бухарская область.



## HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## TO'G'RI BO'LSANG, CHIQUADI OTING

**Jizzax shahrining Hamid Olimjon nomli mahallasida istiqomat qiluvchi P.Sh. firibgarlar o'zlashtirgan 6 million so'mlik tilla taqinchoqlarini qaytarish yuzasidan ichki ishlar organlariga murojaat qildi. Ma'lum bo'lishicha, 3 kishi arizachining uyiga kelib, 4 million so'mga uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishni taklif qilgan. Ayol rozi bo'ladi, chunki unga pulni 6 oyda bo'lib to'lash imkoni beriladi.**

Ammo xaridor garov sifatida tilla taqinchoqlarini topshirishi kerak edi. U mazkur shartga ko'nadi va mahsulot egalari telefon raqamini yozib olish uchun qog'oz va qalam olgani turarjoga kirib ketadi. Bundan foydalangan firibgarlar juftakni rostlab qolishgan.

Qisqasi, ichki ishlar organlari xodimlari jinoyatda gumon qilinayotgan bir erkak va ikki nafar juvonnini topishga qaratilgan tezkor tadbirlarni amalga oshira boshladilar. Jumladan, uyma-uy yurib, savdo qiladiganlar surishtirildi. Kuzatuv kameralari xotirasidagi tasvirlar ko'zdan kechirildi.

Natijada gumon qilinuvchilar chiqqan avtoulovning raqam va belgisi aniqlandi. Ko'p o'tmay ushbu ma'lumot asosida Andijon viloyati Asaka tumani «Namuna» mahallasida yashovchi I.R., N.Q., G.T. va M.Q. ushlandi. Aytgancha, bu orada 4 million so'mga xarid qilingan mahsulotlarning bozordagi bahosi 1 million 800 ming so'm ekanligi ayon bo'ldi.



Tergovga qadar surishtiruv davomida gumon qilinuvchilar qilmishlarini tan olishdi va ulardan jabrlanuvchiga tegishli taqinchoqlar qaytarib olindi. O'z navbatida, qonun himoyachilari jinoiy ishga oid hujjatlarni rasmiylashtira boshladilar. Mazkur jarayonda I.R.

Jizzax shahar IIB TQX JQB katta tezkor xodimi, mayor Javohir Mirzaaliyevga 1 million so'm pora taklif qildi.

Bu pul evaziga mayor jinoyatga ko'z yumishi hamda gumon qilinuvchiga tegishli «Lacetti»ni jarima maydonidan chiqarishi kerak edi. Tabiiyki, qonun himoyachisi pora berish oqibatlarini I.R.ga tushuntirdi. Biroq xodimning gaplari firibgariga kor qilmadi. Shu bois Javohir Mirzaaliyev holatdan viloyat IIB rahbariyatini xabardor qildi. Pirovardida, I.R. 1 million so'm pora bergan vaqtida qo'lga olindi. «Egri bo'lsang, sinar qanoting, to'g'ri bo'lsang, chiqadi oting» deganlari shu bo'lsa kerak.

— Bugunda IIV tomonidan tizimning ijobiy imijini shakllantirish, yuksak huquqiy madaniyat va ma'naviy-ma'rifiy sifatlarga ega bo'lgan xodimlarni tarbiyalashga ustuvor masala sifatida yondashilayotganligini soha vakillari yurakdan his etmoqda, — deydi mayor Javohir Mirzaaliyev. — Jumladan, tizimda qonuniylikni ta'minlash, korruptsiya va tamagirlikning oldini olish, xizmat intizomini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar har qachongidan ko'ra kuchaytirilyapti. Mos ravishda xodimlarning moddiy manfaatdorligini

oshirish, ilg'orlarni rag'batlantirish, shaxsiy tarkibni turarjoy va avtomashinalar bilan imtiyozli shartlarda ta'minlash, ijtimoiy himoya va qulay xizmat sharoitlari yaratish borasidagi natijalar havas qilgudek darajada. Shu ma'noda ayrim hamkasblarimizning xizmat intizomini buzayotgani, qonunga zid xatti-harakatlarga qo'l urayotgani, o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan yondashishlari achinarlidir. Tabiiyki, bundaylarga safimizda joy yo'q. Har bir xodim tizimning imijini belgilashini unutmashligi kerak. Zero qilingan xato, noo'rin qilmish, adolat mezonini buzish yoxud qo'pol muomala sohaning obro'sini to'kadi. Shunday ekan, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish, halollik va intizom har bir ichki ishlar organlari xodimining fazilati, hayotiy shioriga aylanmog'i zarur.

Ma'lumot o'rnida aytish kerak, joriy yilning o'tgan davrida jizzaxlik ichki ishlar organlari xodimlariga pora berishga uringan 8 nafar shaxs qo'lga olinib, tegishli tartibda javobgarlikka tortilishi ta'minlangan.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

## KASB FIDOYILARI

## ZIYOLI MUHITDA ULG'AYGAN INSPEKTOR

**Ziyoli oilada tug'ilish farzandlardan ota-onasiga munosib bo'lish, yaxshi o'qib-o'rganishni talab qiladi. Katta leytenant Matnazar Matchanov ham ana shunday o'qimishli oilada dunyoga kelgan. Otasi – Gaibbay Matchanov hamda onasi – Sevara Durdiyeva Xorazm viloyati Xiva shahridagi 8-sonli o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlashgan.**

Ota-onasining jiddiy nazorati va o'zining tirishqoqligi ortidan Matnazar ham a'lo baholarga o'qidi. Maktabni tugatib, Toshkent Arxitektura qurilish universitetiga o'qishga kirdi. Ta'lim muassasasini tugatib, Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasida ishlay boshladi.

Akalari – Xorazm viloyati IIB «Dinamo» JT va SJK raisi o'rinbosari, podpolkovnik Ergashbek Matchanov hamda iste'fodagi mayor Ravshanbek Matchanovga havas qilib, lavhamiz qahramoni ham egniga ichki ishlar organlari fomasini kiyishga ahd qildi. Hujjatlarini Xorazm viloyati IIBga topshirib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgach, Xonqa tumani IIB HPB profilaktika inspektori lavozimida faoliyatini boshladi. Keyinchalik poytaxtning Chilonzor tumani IIOFMB HPB «Do'mbirodbod» MFY hududiga xizmat ko'rsatuvchi

profilaktika inspektori sifatida faoliyatini davom ettirdi.

Hozirda esa IIBB Tashkiliy boshqarma Tashkiliy nazorat



va tahlil bo'limi katta inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Katta leytenant M. Matchanov vazifasiga sidqidildan yondashib, rahbariyat ishonchini qozonishga harakat qilmoqda. Hamkasblari bilan hamkorlikda poytaxt hududidagi tumanlar kesimida

jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning holati hamda kelib chiqish sabablarini o'rganib, tahlil qilish natijasida ularning oldini olish va kurashish borasida zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilishida qatnashmoqda. Bundan tashqari, u tuman IIOFMB hududiy IIB boshliqlarining xizmatda foydalanishi uchun uslubiy qo'llanma ishlab chiqilishida bevosita ishtirok etgan. Bu xizmatlari rahbariyat tomonidan munosib e'tirof etilgan.

M.Matchanov oilali. Turmush o'rtog'i Onajon Ahmedova ham egniga forma kiygan. U Islom Karimov nomidagi Toshkent «AYERO» ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi bojxona chegara postida faoliyat yuritadi, unvoni kichik serjant. Ularning endigina bir yoshga kirayotgan Ominabonu ismli qizi bor.

Ziyolilar hamda osoyishtalik uchun mas'ul bo'lgan oilada xalqiga eng kerakli bo'lgan kadrlar tarbiya topadi. Ularning xizmati va mehnati yurtimiz tinchligi va ravnaqi uchun o'ziga yarasha hissa bo'lib qo'shilajak.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

HAMON  
O'QISH VA  
IZLANISHDA

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX YHXB Tashkiliy bo'lim tahlil guruhi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Naurizbay Allanazarov o'z kasbining fidoi xodimlaridan biri hisoblanadi. Lavhamiz qahramoni Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetining Milliy g'oya va huquq asoslari yo'nalishini tugatgach, biroz muddat ta'lim muassasalaridan birida o'qituvchi bo'lib faoliyat olib boradi. Vaqt o'tib, ichki ishlar xodimi bo'lishga qaror qiladi. Shu boisdan tegishli hujjatlarini topshirib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan N.Allanazarov 2014-yilda ilk xizmat faoliyatini Ellikqal'a tumani IIB HPB profilaktika inspektori lavozimidan boshlaydi.

Shundan so'ng, Nukus shahri, Taxiatoch tumani profilaktika inspektori lavozimida faoliyat olib borib, 2022-yildan buyon hozirgi lavozimida xizmat qilib kelmoqda. U namunali oila sohibi, turmush o'rtog'i «Zulfiya» nomidagi davlat mukofoti sohibasi Zamira Aliyeva karate bo'yicha murabbiy sifatida sport maktabida yoshlarga saboq beradi. Ular birgalikda farzandi Imronni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

N.Allanazarov o'z ustida ishlab, bilimni oshirishdan to'xtamaydi. Ustozi podpolkovnik Farxad Urumbayevning maslahatlariga amal qilgan holda IIV Akademiyasining sirtqi ta'lim yo'nalishida ham tahsilni davom ettirmoqda.

**Azamati PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



## EHTIYOT BO'L, BOLAJON!

Beshariq tumanining Hamid Olimjon nomli mahallasidagi 14-sonli umumta'lim maktabida 1276 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Mazkur maktab serqatnov yo'l yoqasida joylashganligi bois yo'lni kesib o'tishda qiyinchilikka duch kelinardi.



Yillar davomida cho'zilib kelayotgan bu muammoga ko'chma svetofor yechim bo'ldi. Maktab darvozasi oldidagi piyodalar o'tish joyiga ko'chma svetofor o'rnatilgach, bolajonlar jonajon maktabiga bexovotir o'ta boshlashdi. Ota-onalarning ham ko'ngliga xotirjamlik indi.

Farg'ona tumanidagi 55-sonli maktab oldidagi piyodalar o'tish joyida ham xuddi shunday muammo yillar davomida pedagogik jamoa va o'quvchi-yoshlarni qiynab kelgan. Vodil –Farg'ona avtomobil yo'li yoqasida joylashgan ushbu maktab oldiga ham yaqinda ko'chma svetofor

o'rnatilgach, xavotirga o'rin qolmadi.

Tahlil va o'rganishlar natijasida viloyat bo'yicha xuddi shunday serqatnov yo'l yoqasida joylashgan 18 ta maktab oldiga ko'chma svetofor o'rnatdik, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta inspektori, kapitan Elbek Qobilov. – Shuningdek, o'tgan yilda 40 ta, 2025-yilning o'tgan 3 oyida 12 ta ta'lim muassasasi oldiga qavariq sun'iy notekisliklar tashkil qilindi. Bolalarning yo'l qoidalariga oid bilimlarini mustahkamlash maqsadida 343 ta maktabda maxsus sinf xonalari tashkil etildi. Ta'lim dargohlarida inspektorlarimiz ishtirokida 745 marotaba uchrashuv va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi. Natijada joriy yilning o'tgan 3 oyida bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari salmog'i 29 foizga kamaydi.

Tajribadan yaxshi ma'lumki, yo'l infratuzilmasini yaxshilash yo'l-transport hodisalarining oldini olishdagi eng muhim omil hisoblanadi. Qaysiki, yo'l tekis va ravon, yo'l chiziqlari tiniq, yo'l belgilari hamda svetoforlar tartibli o'rnatilgan bo'lsa, albatta, bu qoidabuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Qoidalar buzilmadimi, demak, yo'l-transport



hodisalari ham sodir bo'lmaydi, eng muhimi, odamlar jabr ko'rmaydi.

**Shu maqsadda viloyat IIB JXX YHXB Maxsus ekspluatatsiya-montaj bo'limi tomonidan joriy yilning o'tgan 3 oyi davomida avtomobillar va piyodalar harakatini tartibga solish maqsadida 11 ta yangi svetofor qurilmasi o'rnatildi, 93 tasida ta'mirlash ishlari olib borildi.**

Shuningdek, Farg'ona shahrida 19 ta yangi yo'l belgilari o'rnatilib, mavjud 667 ta yo'l belgisi zomana-viysiga almashtirildi, 17 534 kvadrat metr yo'l chiziqlari qayta chizildi.

– Ilgari yo'l chiziqlari oddiy bo'yoqlarda chizilardi va ko'p muddatga bormay o'chib ketardi. Shu bois bir yilda ikki marta qayta chizishga to'g'ri kelgan, – deydi maxsus ekspluatatsiya-montaj bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Dilmurod Mamaziyayev. – Hozirda jahon tajribasidan kelib chiqib, rangini 3 yilgacha saqlab tura oladigan maxsus bo'yoqlar olib kelindi va belgilar shular yordamida chizilmoqda. Endi fuqarolarning «Yo'l chiziqlari o'chib ketibdi, ko'rinmay qolibdi», degan e'tirozlariga o'rin qolmaydi va bu harakat ishtirokchilariga qulaylik tug'diradi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Farg'ona viloyati.*

## POLIGRAF TEKSHIRUVLARI MAQSAD VA NATIJA

**Qadimgi Xitoyda jinoyatda gumon qilinuvchi shaxs guruch orqali sinovdan o'tkazilgan. Uning og'ziga bir hovuch guruch solinib, ayblov qo'yilgan. Agar guruch og'zida quruq qolsa (qo'rquvdan so'lak bezi faoliyati to'xtagan), gumon qilinuvchining aybi isbotlangan.**

Qadimgi Hindistonda gumonlanuvchiga jinoyat tafsilotlari bilan bog'liq neytral va tanqidiy so'zlar aytilgan. U xayoliga kelgan birinchi so'z bilan javob berishi va gongni urishi (qo'ng'iroq chalishi) kerak bo'lgan. Qoida tariqasida, tanqidiy so'zga javob kuchli zarba bilan birga keladi.

Afrikada ayblovlarni eshittirish vaqtida gumonlanuvchilar kichik qush tuxumini bir-biriga uzatishgan (uning qobig'i juda yumshoq bo'lgan va eng kichik bosim ham uni maydalashi mumkin edi). Aybdorning asablari dosh bermasdan, tuxumni ezib tashlaydi va shu bilan o'zini fosh qiladi, deb taxmin qilingan.

Bugungi davrga kelib ham psixologik tekshiruvlar o'tkazish amaliyotga joriy etilgan. Xususan, 2023-yil 1-sentabrdan e'tiboran, ichki ishlar organlarida xizmat qilish istagini bildirgan nomzodlarda salbiy omillarni aniqlash maqsadida psixofiziologik (poligraf) tekshiruvlardan foydalanish belgilab qo'yilgan.

Poligraf tekshiruvlari – amaliy psixofiziologiya usuli hisoblanadi. Har bir poligraf tekshiruvini individual-psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadigan ma'lum bir shaxsga nisbatan amalga oshiriladi. Bunda inson ruhiyati va psixik xolatlar qonuniyatlarini bilmasdan turib, poligraf yor-



damida yuqori sifatli tekshiruv o'tkazish mumkin emas.

Tekshiruvlar orqali ichki ishlar organlariga kirish istagini bildirgan nomzodlar o'rganilib, skrining tekshiruvlari amalga oshiriladi.

Apparat nomzod tomonidan o'zi to'g'risida keltirilgan ma'lumotlarning ishonchligini baholash, qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Poligraf xulosasi ehtimollik xususiyatini kasb etib,

dalil sifatida ishlatishga asos bo'lmaydi va yo'naltiruvchi ahamiyatga ega bo'lib, tekshiruv davomida o'tkazilgan konsultativ suhbatlar davomida holatga to'laqonli oydinlik kiritish lozim.

Shuningdek, poligraf tekshiruvlarini o'tkazish orqali bo'lajak xodimlarning kasbiy, ishchanlik fazilatlarini, shaxsiy va axloqiy sifatlarini, sog'lig'i, xizmat vazifalariga halol, vijdonan yondashishi, kelgusida Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan qarashi jamiyatda umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga so'zsiz amal qilish kabi hususiyatlari o'rganilib, tizim xodimlarining xalq va davlat manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlaydi.

**G'ulomjon JALILOV,**  
**Namangan viloyati IIB**  
**MMI va KBTX psixologik**  
**ta'minlash guruhi bosh**  
**psixologi, kapitan.**

# ОҲАНГИ ЮРАККА ТУТАШ

«Шеърда ҳикмат, сўзда сеҳр бор», дейишади. Дарҳақиқат, сўз сеҳри куй-қўшиқ оҳангида кўнгилдан макон топади. Беихтиёр тилга кўчади, киши ошуфтаҳол хиргойи қила бошлайди. Йиллар ўтса-да, тиллардан тушмайди, унутилмайди. Ана шундай қўшиқлардан бири Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Султонпошша Ўдаева ижросидаги «Оқ илон» қўшиғидир.



қилмайди, хиёнаткорни ҳатто сўзларида ҳам қораламайди. Негаки, ҳаётида, хотирасида шу инсон туфайли нурли нуқталар қолган. Шу боис ҳам қора илон демай, оқ илон деб, сўзда ҳам авайлайди.

Шоира шеърда ўзбек аёлларини шу қадар одобли, бағрикенг, иболи, ҳаёли, кечирувчанлигини ифодалайдики, сўзларни теришда ҳам эҳтиёткорлик билан ёндашганини кузатиш мумкин. Бир сўз билан айтганда, мураккаб руҳий кечинмалар, аёлнинг дарду ҳасрати, севги-муҳаббати моҳирона намоён этилган.

Зулфия Мўминова бу шеърнинг ижодига омад келтирганини, шундан сўнг яна бошқа кўплаб санъаткорлар унинг бошқа шеърларини қўшиқ қилганини фахр билан тилга



## ОҚ ИЛОН, ОППОҚ ИЛОН (қўшиқ варианты)

Ҳой, оқ илон, оппоқ илон, ойдинда ётганинг қани?  
Сен-ку мени ёмон дединг, яхшини топганинг қани?

Ҳой, оқ илон, оппоқ илон, тўнингни ташлаб кетма,  
Олиб-олиб, менга ёмон кунингни ташлаб кетма.

Ана, унинг тили узун, менинг дилим узундир,  
Ана унинг қўли узун, менинг йўлим узундир.

Узун-узун ишончларим жон жойидан узилди,  
Юракдаги ишонч уйи тикланмасдан бузилди.

Ҳой, оқ илон, оппоқ илон, тўнингни ташлаб кетма,  
Олиб-олиб, менга ёмон кунингни ташлаб кетма.

Ҳой, оқ илон, оппоқ илон, тишингдаги захарми?  
Қон йиғлатиб мени кўп ёмон куйдирганинг захарми?

Эшикларни йиғлаб ёпдим, эшигингни ёпгин, ёр,  
Мен-ку сени суйиб топдим, сен Худодан топгин, ёр.

Ҳой, оқ илон, оппоқ илон, ойдинда ётганинг қани?  
Сен-ку мени ёмон дединг, яхшини топганинг қани?

Ҳой, оқ илон, оппоқ илон, тўнингни ташлаб кетма,  
Олиб-олиб, менга ёмон кунингни ташлаб кетма.

Қизик, қўшиқ ҳақиқатан ҳам, илонлар ҳақидами? Гап ўзи нима тўғрисида кетяпти? Шу ва шу каби саволларга жавоб ахтариб, мазкур қўшиқнинг яратилиш тарихи билан қизикдик.

Ўзбек халқ қўшиқларини севиб хиргойи қиладиган санъаткор Султонпошша Ўдаева шу йўналишда ҳам ўз репертуарида қўшиқ бўлишини анчадан бери дилига тугиб юради. Кунларнинг бирида шоира Зулфия Мўминовага «Чиройли халқ қўшиқларимиз бор. Бирортасининг тўрт қаторини олиб, замонавий шеър ёзиб беринг», деб илтимос қилади. Икковлари ўйлаб, маслаҳатлашиб:

**Ҳой, оқ илон, оппоқ илон,  
ойдинда ётганинг қани?  
Сен-ку мени ёмон дединг,  
яхшини топганинг қани?**

сатрларини танлашади. Қолганига шоира аёл изтиробларини, юрак нола-сини улаб ёзади.

– Тайёр шеърнинг ҳажми жуда катта эди, унинг ичидан олиб қўшиқ қилганман. Мусиқаси ўзимники, – дейди санъаткор.

Султонпошша Ўдаева қўшиқни 1990 йиллари тайёрлаб, биринчи марта 1991 йил 1 май куни Тошкент телевидениесида байрам концертида ижро этган.

Халқимизнинг сеvimли шоираси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Зулфия Мўминовадан шеърнинг мазмуни ҳақида сўраганимизда, у қуйидаги фикрларни билдирди:

– Қўшиқ нақорати «Ҳой, оқ илон, оппоқ илон» бўлгани учун шеър оқ илон ҳақида деб тушунганлар ҳам бўлган. Лекин мен ўзим оқ илонни ҳаётда умуман кўрмаганман, – дейди шоира кулиб. – Аслида шеър бевафо ёрга аталган. Қачонлардир аёлини севган, кейин эса... Лекин аёл унинг орқасидан ёмон гап гапирмайди, ҳақорат


олади.

Шу ўринда қўшиқ билан боғлиқ бўлган, Султонпошша Ўдаеванинг турмуш ўртоғи Сафарбой Алимбоевнинг ҳам фикрларини келтириб ўтиш жоиз.

– Бу қўшиқни таникли овоз режиссёри раҳматли Анвар Тожиев грампластинкага ёзган, – дейди у. – Қўшиқни ёзиш жараёнида негадир ҳофизанинг ижросидан кўнгли тўлмайди. Шунда у: «Сен бу қўшиққа шундай бир дард бергинки, Сафарбой сени ташлаб кетди... Ана шу дардни кайфиятингга кўчир ва уни овозингда зоҳир қил», деб айтади. Шу боис ҳам бу қўшиқда дард бор, юк бор. Анвар Тожиевнинг биргина тавсияси билан ижро янаям маромига етган. Бемалол айтишим мумкинки, қўшиқнинг бундай муваффақиятли чиқишида у кишининг ҳам алоҳида ҳиссаси бўлган.

Қўшиқ яралганига 35 йил бўлди. Султонпошша Ўдаева қайси даврада бўлмасин, ҳали ҳамон шу қўшиқни айтишини сўрашади. Дарҳақиқат, оҳанги юракка туташган қўшиқлар йиллар ўтса-да, жозибасини йўқотмай, муҳлислар қалбида ўз ўрнига эга бўлиб қолаверди.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,  
ўз мухбиримиз.**



ПРОФИЛАКТИКА ХИЗМАТИ

## ИШОНЧ ТАЯНЧИГА АЙЛАНГАН МАСКАН

Ҳозирги кунда Самарқанд вилоятида қирққа яқин миллат вакиллари истиқомат қилаётган мингдан зиёд фуқаролар йиғинлари фаолият кўрсатмоқда. Худуд маҳаллалар сони бўйича республикада Тошкент шаҳридан кейин иккинчи ўринда туради.

Бугун маҳалла фуқароларнинг ишонч таянчига айланди, десак, муболаға бўлмайди. Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан ҳар қандай муаммога маҳаллаларнинг ўзида ечим топиш имконини берадиган самарали тизим яратилди. Аҳоли турмуш шароити ва сифатини яхшилаш, ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, хотин-қизлар ва ёшларни замонавий касб-ҳунарга ўргатиш, иш ва уй-жой билан таъминлаш, оила институтини қўллаб-қувватлаш, аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш борасидаги ишлар янги босқичга кўтарилмоқда.

Тойлоқ туманидаги «Хончорбоғ» фуқаролар йиғини профилактика инспектори, катта лейтенант Обид Султонов иш бошлаганида маҳалла «қизил» тоифада эди, ҳозир эса «яшил»га айланди.

– 2021 йилдан буён маҳаллада профилактика инспектори бўлиб ишлайман, – дейди О.Султонов. – Хизматга энди киришган пайтларимда ўнга яқин жиноят қайд қилинган бўлса, ҳозир бирорта ҳам ҳуқуқбузарлик содир

этилмаяпти. Бунга маҳалла фуқаролар йиғини мутасаддилари билан яқин ҳамкорликдаги фаолият натижасида ютуқларга эришяпмиз.

Менга бириктирилган ҳудуддаги вазиятни яхшилашда ҳурматли устозларимиз, маҳалла раиси ва муҳтарам оқсоқолларимизнинг ўрни беқиёс эканини алоҳида таъкидламоқчиман. Айнан уларнинг оқилона маслаҳатлари, фаол қўллаб-қувватлашлари туфайли ижобий натижаларга эришяпмиз. Уларнинг бой ҳаётий ва касбий тажрибаси, билими юзага келаяётган муаммоларни самарали ҳал қилиш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда бизга жуда асқатмоқда.

Шу кезде устозим – Тойлоқ тумани ИИБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, подполковник Дилшод Неъматовга алоҳида миннатдорлик билдирмоқчиман. Унинг фидокорона хизмат фаолияти мен учун чинакам намунадир.

**Замира БОЛТАЕВА,**  
ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.



## ҚАТЪИЯТЛИ, ЯХШИ СЎЗЛИ БЎЛСИН

Савол: Ички ишлар органи ходими, Сизнинг назарингизда, қандай фазаилатларга эга бўлиши лозим?



**Мунаввара УСМОНОВА,**  
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими,  
«Саодат» журнали бош муҳаррири:

– Тунни тонга улаб хизмат вазифасини бажариш, ҳар қандай об-ҳаво шароитида сергак бўлиш, турли хил ҳолатларда жиноятчилар билан юзма-юз келишнинг ўзи бўлмайди. Сизу биз учун ички ишлар органи ходимлари ўз ҳаётини гаровга қўйиб, адолат учун, тинчлик ва хотиржамлик учун жон фидо қилишга тайёр турадилар. Бироқ баъзан уларни муомала борасида қўпол, фуқароларга нисбатан шафқатсиз, деган гаплар ҳам қулоққа чалиниб қолади.

Назаримда ички ишлар органи ходимлари хизмат вазифасини ҳалол ва соф виждон билан бажарадиган, кийиниш маданиятидан тортиб муомаласигача, жамиятдаги ислохотлардан хабардорлигидан тортиб, ахлоқ-одобигача намунали бўлиши лозим.

Ахборот асрида, ҳозир содир бўлган ҳолат шу дақиқанинг ўзидаёқ ижтимоий тармоқларда элга ошкор бўлмоқда. Ички ишлар органи ходимлари орасида, афсуски, ўз фикрини тўғри деб биладиган, аслида нотўғри йўлдан борадиган, шахсий манфаатларини халқ манфаатларидан устун кўядиган адашган ходимлар ҳам учраши кўнгилни хира қилади. Бундай касларнинг қилмиши кўп ҳолларда нафақат муҳокамага, балки тизим нуфузини туширишга ҳам сабаб бўлади.

Эл тинчлиги учун жонфидо, ички ишлар органи ходимлари, менинг наздимда, энг аввало, фуқаролар билан мулоқотда хушмуомала, камтар ва камсуқум, фикри тийран, маданияти юксак бўлмоғи даркор.

ЁШЛАР – КЕЛАЖАК БУНЁДКОРИ

## ИСМИГА МУНОСИБ ШОГИРД

Инсон қайси соҳада меҳнат қилмасин, устоз кўрмаса, касбини пухта эгалолмайди. Шунингдек, шогирд фаолияти давомида ўқишдан, изланишдан тўхта-маса, ҳамиша олға интилса, ўз касбининг устасига айланиши муқаррар. 2024 йили ИИБ Академиясини тугатган ва айни пайтда Вобкент тумани ИИБ ЖХХ ҲПБ профилактика инспектори, лейтенант Сардор Қўлдошев ана шундай ёш шогирдлардан биридир.



– Сардорга мураббий этиб бириктирилганимда, аввало, исмига муносиб йигит бўлсин, деб ўйлагандим. Чунки шогирд устозга обрў келтириш билан бирга, акси бўлиши ҳам ҳеч гап эмас. Буни ҳаётда кўп бора кузатганман, – дейди профилактика катта инспектори, майор Шерали Субҳонов. –

Сардорнинг хулқ-атвори ва хатти-ҳаракатини кўрганда, у касб танлашда адашганини пайқаганман.

Лейтенант С. Қўлдошев «Мирвоши» маҳалла фуқаролар йиғинида истиқомат қилаётган 2900 нафарга яқин аҳолига фаоллар билан ҳамжиҳатликда хизмат кўрсатмоқда. Маҳаллада жорий йилнинг 13 фев-

ралида Ислом тараққиёт банки маблағи ҳисобидан янги, замонавий уч қаватли марказ фойдаланишга топширилди.

Марказда маҳалла идораси ва профилактика инспекторининг хизмат хонасидан ташқари, хотин-қизларни касбга йўналтириш мономаркази, маиший ва савдо хизмат кўрсатиш шохобчалари, кутубхона жойлашган. Шунингдек, кексаю ёшни спорт билан чинқитириш мақсадида аёл ҳамда эркеклар учун алоҳида заллар барча спорт анжомлари билан тўлиқ жиҳозланган.

– Устозим Шерали ака ўз худудидаги аҳолининг тинчлик-хотиржамлигини таъминлашдан ортиб, менга ҳам тушунмаганимни ўргатиб, йўл-йўриқ кўрсатиб келяпти. Бир қарашда арзимасдек кўринган ариза-шикоятларга ҳам алоҳида эътибор бериб қарашимни,

чунки унинг замирида инсон тақдири ётишини уқтиради, – дейди лейтенант Сардор Қўлдошев.

Профилактика инспекторининг маҳалла жамоаси билан олиб бораётган ибратли ишлари оилавий келишмовчиликларга, қўни-қўшнилар ўртасидаги жанжалларга барҳам бермоқда. Жорий йилнинг ўтган ойлари давомида 3 та оила яраштирилди ва ҳимоя ордери расмийлаштириб берилди, ажралишлар бўлмади. Бир нафар муқаддам судланган шахснинг бандлигини таъминлаш мақсадида унга имтиёзли кредит ажратилиши белгиланди. У оладиган кредитига иссиқхона ва паррандачилик фаолиятини йўлга қўймоқчи. Энг асосийси, маҳалланинг «яшил» тоифадалиги сақланиб қолмоқда.

**Мирзокул АҲАДОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.

ИИБ Малака ошириш институти раҳбарияти ва шахсий таркиби институт бошлиғининг матбуот котиби, подполковник Шерали Анваровга волидаи муҳтарамаси

**Анорбий она АНВАРОВА**нинг вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Қашқадарё вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши Муборак тумани ИИБ ЖХХ ҲПБ профилактика катта инспекторлари

**майор Зокир ҚУРБОНОВ,**  
лейтенант **Сирожддин ҚУВОНДИҚОВ**нинг фожиали вафоти муносабати билан марҳумларнинг яқинларига таъзия изҳор қилади.

## КАРКАДЕ ЧОЙИ

Судан атиргули, гибискус ва розелла номи билан ҳам аталувчи ушбу ўсимлик таркибида бета-каротин, флавоноидлар, пектинлар, А, С, РР ҳамда В гуруҳи витаминлари, калий, натрий, фосфор, темир, марганец, селен, магний, кальций каби фойдали моддалар мавжуд. Витамин ва минералларга бой бўлгани учун мазкур ичимлик организмга ижобий таъсир кўрсатади. Жумладан:



\* инфекция ва бактериялар ривожланишига йўл қўймайди;

\* юрак ва қон томирлари саломатлиги учун фойдали;

\* шамоллаш ва грипни даволашда қўл келади;

\* эркин радикаллар билан курашади;

\* сафро ишлаб чиқилишини яхшилайди;

\* шишишнинг олдини олиб, ортиқча суюқликнинг чиқарилишига хизмат қилади;

\* асаб тизимини тинчлантиради;

\* сочлар ўсишини рағбатлантиради;

\* метаболизмни меъёрлаштириб, вазн ташлашга ёрдам беради;

\* хотирани яхшилаб, бош мия фаолиятини фаоллаштиради.

Бундан ташқари, каркаде чойи қонда холестерин миқдорини ка-

майтириб, қон айланишини яхшилайди. Шунингдек, бу ичимлик тинчлантирувчи хусусиятга эга бўлиб, асабий зўриқиш, тушкун кайфият ва уйқусизликка қарши самарали воситадир.

Бундай чойни қон босими муаммоси бор инсонлар истеъмол қилса, яхши натижага эришади. Ичимлик иссиқ ҳолда ичилганда, қон босимини ошириб, организмни тетиклантиради. Совуқ чой эса қон босимини тушириб, инсонни сокинлаштиради.

Бироқ каркаде чойи ошқозонида кислоталилик юқори бўлган, ички аъзоларида тош аниқланган ва яра касалликлари кузатилган инсонларга тавсия этилмайди. Шунингдек, бирон касаллик туфайли турли дори-дармон қабул қилаётган беморлар бундай ичимликни истеъмол қилмагани маъқул.

Кўкдамда кўзларни қувнатиб ўсувчи қоқи ўт ёки момақаймоқ, гарчи кўринишидан оддийгина бўлса-да, инсон саломатлигига фойдаси катта. Унинг таркибида А, С, В2, В6 ва Р витаминлари, минерал тузлар, кальций, фосфор, марганец, мис каби фойдали элементлар мавжуд.

## ФОЙДАЛИ ЎТЛАРДАН БИРИ

Ота-боболаримиз ушбу табиат неъматини овқат ҳазм қилиш, жигар, буйрак ва ўт пуфаги фаолиятини яхшилаш мақсадида истеъмол қилишган. Бу ўсимлик яраларнинг тез битишига ёрдам бериб, сил, вируслар ва гижжага қарши самара-

ўт пуфаги касалликларида, жигарни ёғ босганида ёки яллиғланиш кузатилганида, қоқи ўт ижобий натижа беради. Иккинчи турдаги қандли диабетда қоқи ўт энг фойдали ўсимлик саналади. Шунинг учун момақаймоқни турли салатларга



ли таъсир кўрсатади. Момақаймоқ сафро ҳайдовчи, диуретик, сурги, балғам кўчирувчи, тинчлантирувчи, ухлатувчи, пешоб ҳайдовчи ва терлатувчи хусусиятларга эга. Унинг шираси ниҳоятда шифобахш бўлиб, организмга қувват бахш этади, тетиклаштиради, ҳорғинлик ва чарчоқдан халос этади.

Қоқи ўт саратонга қарши таъсир кучига эга. Бундан ташқари, буйрак,

кўшиб ёки қуритилганини дамлаган ҳолда истеъмол қилиш тавсия этилади.

Момақаймоқдан тайёрланган чой ошқозон бузилишида ва қорин дам бўлишида ёрдам беради. Бундай ичимлик ичаклар фаолиятини яхшилаб, холестерин миқдорини камайтиради. Шунингдек, моддалар алмашинувини меъёрлаштиради ва вазн ташлашга хизмат қилади.

Тавсияларга амал қилишдан олдин шифокор билан маслаҳатлашинг.



Диетолог-мутахассислар ҳар бир соғлом одамга ўз саломатлигини сақлаш ва иммунитетини мустаҳкамлаш учун ҳафтада икки мартада бир стакан бодом сути ичишни тавсия қилишади. Аслида бодом сути сигир сутининг ажойиб муқобилидир. Айниқса, лактозани ёқтирмайдиганлар ёки вегетариан парҳезига риоя қиладиганлар учун бу айни муддао.

Бодом сути антиоксидант, кальций, рух, магний, темир, фосфорга бой. Бундай бой таркиб инсон иммунитетини рағбатлантирувчи таъсирга эга. Бундан ташқари, тери ва соч саломатлигига ижо-

бий ҳисса қўшади. Магний эса юрак фаолиятини яхшилайди. Шунингдек, бодом сутида А, В, D, Е витамин гуруҳлари мужассамлашган. А витамини кўз равшанлигини таъминласа, Е витамини



## БОДОМ СУТИ

ПАРҲЕЗГА РИОЯ ҚИЛАДИГАНЛАР УЧУН

терини ёшартирувчи хусусиятга эга.

Бодом таркибидаги табиий клетчаткалар ичакларнинг тўғри ишлашига, шикастланган шиллик пардаларни тиклашга ёрдам

беради, ичак фаолияти ва унинг микрофлорасини яхшилайди.

Сигир, эчки, туя сутидан фарқли равишда, бодом сути таркибида холестерин йўқ. Бу эса ортиқча вазндан

халос бўлмоқчи бўлганлар учун жуда фойдали. Бодом сутининг калорияси паст: 1 стакан бодом сути 60–65 калорияга эга.

Хўш, бу шифобахш сут қандай тайёрланади? Бунинг учун 200 грамм бодом, 800 мл қайнатиб совутилган хона ҳароратидаги сув керак бўлади. Тайёрлаш усули: бодом идишга солинади, юзаси ёпилгунча сув қуйилади ва бир кечага қолдирилади. Эртаси куни эрталаб сувни шимиб олган бодом блендерга солинади ва тахминан бир стакан сув қўшиб, яхшилаб аралаштирилади. Сўнгра филтрдан ўтказиб, истеъмол қилинади. Ёқимли иштаҳа!

Саҳифани Гулчеҳра АЗИМОВА ва Адолат ФАЙЗИЕВА тайёрлади.



★ Месячник духовности



## ПРИКОСНОВЕНИЕ К ИСТОРИИ

**Экскурсии в музей – это не только способ расширить кругозор и углубить знания об истории и культуре, но и возможность ощутить неразрывную связь с прошлым.**

В рамках духовно-просветительской работы для учащихся Каракалпакского академического лицея МВД Узбекистана регулярно организовываются посещения музеев. Недавно они побывали в Государственном музее истории и культуры Республики Каракалпакстан.

Этот музей один из старейших в Центральной Азии, был организован в 1929 году в Турткульском районе как краеведческая выставка. В 1944 году сменил адрес и расположился в Нукусе. В 2019 году музей получил новое здание. Сегодня его филиалы работают в Элликалинском и Муйнакском районах.

Музей располагает более чем 65000 экспонатами, охватывающими природу, археологию, этнографию и историю. Здесь представлены окаменелые останки древних животных и растений. Уникален экспонат «Последний туран-



ский тигр». Археологическая экспозиция включает не имеющие аналогов артефакты и макеты городищ. В этнографическом разделе выставлены старинные народные костюмы, ювелирные украшения, убранство юрты, ковровые изделия, традиционные музыкальные инструменты, оружие и доспехи. Исторические экспонаты представлены рукописями и старопечатными книгами, монетами,

документами, портретами исторических личностей.

Учащиеся с большим интересом ознакомились с экспозицией музея и получили от специалистов ответы на многочисленные вопросы.

Организация подобных мероприятий способствует духовному обогащению молодого поколения.

**Гулназ УСЕНОВА,**  
педагог.

Республика  
Каракалпакстан.



**Бухарская область.** Сотрудники ОВД Вабкентского района посетили музей «Жасорат», организованный в Бухарском академическом лицее МВД, отражающий славную историю.

## МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(14 – 20 апрель)



**Кўй.** Келаётган ҳафтада сизни янги таассуротлар ва ёрқин ҳис-туйғулар кутмоқда. Бу даврда саломатликка жиддий эътибор қаратиб, ўзингизга бироз дам беринг ва келгуси узоқ муддат учун куч-қувват йиғинг – бу сизга ҳозир жуда зарур. Оила аъзоларингизга кўпроқ вақт ажратишга ҳаракат қилинг.



**Бузоқ.** Иш жойингизда қутилмаган ва асосий ўзгаришлар юз беради. Бу ҳафта кадрдонлар, дўстлар кўмаги ва ғамхўрликлари иш фаолиятда зиммангизга юклатилган мураккаб вазифаларнинг уддасидан чиқишга ёрдам беради. Молиявий жиҳатдан ҳам муваффақият сиз томонда бўлади.



**Эгизаклар.** Жамоавий фаолиятда доим иштирок этинг, сиздаги фаоллик ва шижоат кўпчиликка маъқул келади. Ҳар қандай вазиятда ўзингизни тутиб, оғирроқ бўлишга ҳаракат қилинг. Бу давр янги режалар тузиш ва уларни амалга ошириш йўлларини излаш учун жуда қулай.



**Қисқичбақа.** Сизни қизиқарли ва ёдда қолувчи воқеаларга бой ҳафта кутмоқда. Аммо шубҳали ва қалтис молиявий ишларга аралашмасликка ҳаракат қилиб, муғомбир танишлар билан мулоқотни узинг. Душанба куни баъзи ҳамкасблар билан муносабатлар изига тушади.



**Арслон.** Бу ҳафтада кўпроқ ижодий ишлар билан шуғулланасиз, сешанба энг омадли кун ҳисобланади. Гап фойдали битимлар ва истиқболли шартномалар ҳақида кетмоқда. Ўз қобилиятларингизни кўрсатишдан чўчиманг. Жума куни сеvimли иш билан шуғулланиш имкониятига эга бўласиз.



**Паризод.** Ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўзингизга бўлган ишонч даражасини юқори ушланг. Сешанба янги шартнома ва битимлар тузиш учун омадли кун – сарфланган маблағ катта фойда келтиради. Лекин яхши таниш бўлмаган одамлар билан ўз режаларингизни ўртоқлашманг.



**Тарози.** Сешанбада вақтингизни маиший муаммоларни ҳал этишга бағишланг. Чоршанба учун режалаштирилган хизмат сафарлари омадли кечади, жума куни эса бундай сафарлардан узоқ турган маъқул. Дам олиш кунлари узоқдан қариндош ва яқинларингиз ташрифи кутилмоқда.



**Чаён.** Бу ҳафта куч-ғайратингиз етаридан ортиқ бўлади. Лекин атрофдаги нафақат рақиблар, балки ҳамкасблар ва дўстлардан ҳам эҳтиёт бўлинг. Шу кунларда катта пул маблағи келиб тушиши мумкин, лекин уни ўнгу сўлга беҳуда сочманг.



**Ўқотар.** Бу ҳафта молиявий масалада тежамкор бўлишга ҳаракат қилинг, пулларни биринчи учраган иш учун беҳуда сарфламанг. Чоршанба куни янги танишлар орттирилиши, фойдали алоқалар ўрнатилиши кутилмоқда. Оилавий муаммоларни ҳал этиш ҳаракатини ҳафтанинг иккинчи ярмига қолдирганингиз маъқул.



**Тоғ эчкиси.** Ҳафтанинг иккинчи ярмида таранг асабларни бўшаштиринг, ижодий режаларни амалга ошириш ҳақида ўйланг. Бу давр иш муносабатларини мустаҳкамлаш учун қулай бўлиб, ўз режаларингиз борасида эътиборли танишлар билан маслаҳат қилишингиз мумкин. Дам олиш кунлари дўстлар ва яқинларингиз билан боғланинг.



**Қовға.** Келаётган ҳафта янги нарсаларни ўрганишга сабаб бўлади. Бу даврда молиявий муаммоларни имкон қадар ҳал қилишга ҳаракат қилинг. Барча гојларингиз ҳаётга татбиқ этилади, асосийси, таваккалчиликни талаб қиладиган ишларга аралашманг. Дам олиш кунларида режалаштирилган барча тадбирлар кўнгилдагидек ўтади.



**Балиқ.** Сизни ҳодисаларга бой ҳафта кутмоқда. Душанба куни фойдали нарсага пул сарфлаш ҳақида ўйлаб кўринг, эҳтимол, бу билан молиявий ҳолатингизни яхшилаб оласиз. Ҳафта бошида иш жойингизда текширув ташкил этилиши мумкин. Бундан асло хавотирга тушиб, қайғурманг. Аксинча, барча саъй-ҳаракатларингиз муносиб баҳоланади.

9-APREL – SOHIBQIRON AMIR  
TEMUR TAVALLUD TOPGAN KUN



## Sohibqiron haqida qiziqarli faktlar:

**Shaxmatchi:** Amir Temur ashaddiy va juda kuchli shaxmatchi bo'lgan. Hatto harbiy yurishlar vaqtida ham bir necha partiyani bir vaqtda o'ynash qobiliyati haqida rivoyatlar mavjud.

**Poliglot:** u bir nechta tillarni, jumladan fors, turkiy va arab tillarini bilgan, bu esa unga keng imperiyani boshqarish va diplomatik muzokaralar olib borishda yordam bergan.

**Fan va san'at homiysi:** harbiy yutuqlariga qaramay, olimlar, rassomlar, me'morlar va shoirlarni qo'llab-quvvatlagan homiy sifatida tanilgan. Uning Samarqandagi saroyi intellektual va madaniy hayot markaziga aylangan.

**Strateg va taktik:** tarixdagi eng buyuk sarkardalardan biri hisoblangan. Uning harbiy strategiyalari va taktik qarorlari ko'pincha kutilmagan va tengsiz g'alabalarga olib kelgan. U birorta ham yirik jangda mag'lub bo'lmagan.

**Qonun chiqaruvchi:** uning hukmronligi davrida davlat, armiya va jamiyat hayotining turli jihatlarini tartibga soluvchi «Temur tuzuklari» qonunlar to'plami ishlab chiqilgan.

**Bog'lar ishqibozi:** shaharlarni, ayniqsa, Samarqandni obodonlashtirishga katta e'tibor qaratgan. U zamonasining kishilariga o'z go'zalligi va jozibasi bilan hayratga solgan ko'plab ajoyib bog'lar barpo etishni buyurgan.

**Tarixga qiziqish:** Amir Temur Chingizxon va Iskandar Zulqarnayn kabi o'tmishning buyuk hukmdorlarining tarixi va tarjimai hollariga katta qiziqish bildirgan, ularning strategiyalari va boshqaruv saboqlarini o'rgangan.

# HUNARDAN UNAR

Hunarli inson hech qachon xor bo'lmaydi. Hunarining ortidan obro' orttiradi, eng muhimi, u doim odamlar uchun kerakli inson bo'ladi. Nilufar ham bolaligidan onasi – Gulnora opaning to'qish bilan shug'ullanganini ko'rib ulg'aydi. Sekin-asta o'zining ham qo'llari kelishib, kichik-kichik buyumchalar to'qiy boshladi.



Onasidan o'rganganlarini yanada mustahkamlash maqsadida 6-sinfdaligidayoq, maktabda to'quvchilik to'garagiga qatnay boshladi. Keyinchalik o'z kasbini mukammal egallagan to'quvchi ayolga shogird ham tushdi. Oila Surxondaryodan poytaxtga ko'chib kelishganidan so'ng «Mashhura» o'quv markazida 3 oylik kursda o'qidi va to'quvchilikni mukammal o'zlashtirdi.

Lavhamiz qahramoni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining jismoniy madaniyat yo'nalishini tamomlagan. Onasi, iste'fodagi serjant Gulnora Suvonova ko'p yillar ichki ishlar organlarida faoliyat yuritib, Surxondaryo viloyati Denov tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limidan pensiyaga chiqqan.

Onasining izidan ketgan qiz ham kam bo'lmadi. U hozirda Shayxontohur tumani IIOFMB 1-sonli IIB migratsiya guruhi inspektori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

– Egnimga ichki ishlar organlari formasini kiyganimda, onajonim judayam xursand bo'lgan, – deydi kichik serjant Nilufar Suvonova. – IIV Malaka oshirish institutida o'tkazilgan

bitiruv tadbiriga kelganlarida ko'zlarida sevinch yoshlari bilan duo qilgan. Shuningdek, onamdek to'quvchilik hunarini o'rganib, uni mukammal egallaganimni ko'rib, bir xursandchiligi o'n karra oshdi. Men uchun bundan ortiq baxt yo'q dunyoda.

Nilufar xizmat jarayonida qanchadan-qancha fuqarolar bilan muloqot qiladi. Ularning muammolarini hal qilishda yordami tegadi. O'z navbatida, ishi bitgan fuqarolar inspektorga minnatdorlik izhor etadi. Shuningdek, xizmatdan bo'sh vaqtlarida turli xil kiyimchalar, qo'g'irchoq, sumka, shapka hamda sharf kabi bejirim buyumlarni to'qib, ularni qarindoshlari, hamkasblari va tanish-bilishlarining tug'ilgan sanalari-yu yaxshi kunlarida sovg'a qiladi. Ularning xursandchiliklarini ko'rganida esa barcha charchoqlar unut bo'ladi, o'zini dunyodagi eng baxtiyor odam his qiladi. Shu emasmi, hayotning asl mazmuni va zavqi.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

1-betdagi suratda: Toshkent shahar IIBB JTSB PPXB otliq otryadi inspektorlari – safdordlar Boburmirzo Mahmudov va Abrorjon Jumaboyev.

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI		TELEFONLAR:	Tahririyat hisob raqami h/r	Buyurtma № 925.
<b>Bosh muharrir</b>	<b>Mas'ul kotib</b>	71-231-33-88;	23402000300100001010.	Bosilish – ofset usulida.
<b>polkovnik</b>	<b>Erkin SATTOROV</b>	<b>Obuna masalalari bo'yicha:</b>	Bank kodi 00014.	Bichimi – A3.
<b>Bernora SADIKOVA</b>	<b>Sahifalovchilar</b>	71-231-38-74;	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.	Hajmi – 6 bosma taboq.
<b>Bosh muharrir o'rinbosarlari</b>	<b>Zokir BOLTAYEV</b>	97-420-89-24	Shaxsiy h/v	45602 nusxada chop etildi.
<b>podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV</b>	<b>Ilhom JUMANOV</b>	<b>Web-site:</b> www.postda.uz	470010860262877031101179001	<b>Obuna raqamlari:</b>
<b>mayor Aziza BOHODIROVA</b>	<b>Akbar BOLTAYEV</b>	<b>E-mail:</b> info@postda.uz	STIR 200637499.	Yakka tartibda – 180.
<b>Navbatchilar</b>	<b>Fotomuxbirlar</b>	<b>ISSN 2010-5355</b>	Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.	Tashkilotlar uchun – 366.
<b>Shuhrat RO'ZIYEV</b>	<b>Abu KENJAYEV</b>	<b>9 772 010 535 001</b>	Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.	Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
<b>Radik TUMPAROV</b>	<b>Ikrom HASANOV</b>			Bosishga topshirildi – 21.00.
Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.				Sotuvda kelishilgan narxda.